

1137

ʻErtaklar, rivoyatlar,  
hikoyatlar, maqollar, hikmatlar

An illustration depicting a scene in a harbor. On the left, a man in a green robe and a large white turban with a red top is shown in profile, holding a small tray with a glowing object. On the right, a man with a beard and glasses, wearing a blue robe, looks at the object. In the background, there are several sailboats on the water and a building with a tiled roof. The scene is set against a backdrop of green and yellow washes.

# SHARQONA TARBIYA

2-kitob






85  
H-35


# SHARQONA TARBIYA

Ertaklar, rivoyatlar, hikoyatlar,  
hikoyalar, maqollar, hikmatlar

**2-kitob**

Toshkent  
«Navro'z» nashriyoti  
2018-yil





UO‘K: 122.11.24

KBK: 85.02(O‘)

**N35 Nuriddinova, Mavjuda / “Sharqona tarbiya”.**

Ertaklar, rivoyatlar, hikoyatlar, hikoyalar, maqollar, hikmatlar. / – Toshkent: “Navro‘z”, 2018-y. – 144 bet.

*E’tiboringizga havola etilayotgan ushbu to‘plamning alohida xususiyati shuki, unda inson fe’lida mujassam bo‘lgan ba’zi bir fazilat yoki illatlarga to‘xtalib, uni ertaklar, rivoyatlar, hikoyatlar, hikoyalar, xalq maqollari misolida izohlaydi, ayni mavzudagi ulamolarning o‘g‘itlari, donolarning hikmatlari keltiriladi. Yana, shuni ham alohida ta’kidlash o‘rinliki, mazkur to‘plam oila davrasida mutolaa qilish uchun mo‘ljallangan.*

**Tuzuvchi:**

**Mavjuda NURIDDINOVA**

ISBN 978-9943-38-1-964

© «Navro‘z» nashriyoti, 2018

© Mavjuda Nuriddinova

## SO‘ZBOSHI

*Bir donishmanddan so‘radilar:*

*– Odam uchun yarashadigan liboslar ichida eng go‘zali qaysi?*

*Donishmand aytdi:*

*– Bu axloq libosidirki, kishi qiyofasini bezaydigan, uning husniga husn qo‘shadigan bundan ortiq go‘zal libosni uchratmadim.*

*Darhaqiqat, insonning qalbidagi ijobiy va salbiy xislatlarning bari uning bajarayotgan xatti-harakatlari, aytayotgan gap-so‘zlari orqali yuzaga chiqadi. Shu boismi “Beadabning yomonligi faqat o‘ziga-gina emas, boshqalarga ham zarar yetkazadi”, deydi Sharqning yetuk allomalaridan biri Jaloliddin Rumi.*

*O‘tmishda yashagan taniqli mutafakkirlar, olim-u fuzalolar insonlarning yuksak ma’naviyatli, pok axloqli, go‘zal xulqli komil insonlar bo‘lib yetishishlarini orzulab, bu borada ko‘p mehnatlar va mashaqqatlar chekib, hisobsiz asarlar bitganlar.*

*E'tiboringizga havola etilayotgan ushbu to'plamning alohida xususiyati shuki, unda inson fe'lida mujassam bo'lgan ba'zi bir fazilat yoki illatlarga to'xtalib, uni ertaklar, rivoyatlar, hikoyatlar, hikoyalar, ruboiylar, nazmiy parchalar, xalq maqollari misolida izohlaydi, ayni mavzudagi ulamolarning o'gitlari, donolarning hikmatlari keltiriladi. Yana, shuni ham alohida ta'kidlash o'rinliki, mazkur to'plam oila davrasida mutolaa qilish uchun mo'ljallangan. Ya'ni, kichik yoshdagi bolalar fahm-u fasohatiga og'ir keladigan fikrlarni ota-onalari yoki ustozlari bilan hamjihatlikda o'zlashtirsa, hikmatli iboralar va maqollarni yod olib, hayotida qo'llasa, ko'zlangan natijaga imkon qadar aniqroq hamda ildamroq erishiladi.*

## SAXIYLIK VA BAXILLIK

*Saxiylik o'zidagi bor narsani boshqalar bilan baham ko'rishdir. Saxiy inson biror narsaga yoki ko'makka muhtoj bo'lgan kishiga, albatta, yordam beradi. Saxiy barchaga birdek yaxshilik qiladi, ammo buning evaziga hech narsa umid qilmaydi.*

*Baxillik esa birovga hech narsa bermaslik va boshqalarning yutug'ini ko'rolmaslikdir. Xalqimizda "Baxilning bog'i ko'karmas" degan maqol bor. Baxil odam har qancha chiranmasin, ishida unum, oilasida baraka bo'lmaydi. Baxillikni odat qilgan kishi boshqalarga qilgan yomonligi evaziga, albatta, jazo oladi.*



## SAXIY BILAN BAXIL

*(O'zbek xalq ertagi)*

Kunlardan bir kuni baxil bilan saxiy sahroda sayohat qilib yurishgan ekan. Baxil suv solgan meshining og'zini hech ochmabdi, oziq-ovqat solgan xaltasini yechmabdi. Saxiyning suvini ichib, nonini yeb yuraveribdi.

Bir kuni saxiyning suvi ham, noni ham tugabdi. Ular charchab, quruq bir cho'lda dam olgani o'tirishibdi. Baxil o'z meshidan piyolaga suv quyib ichibdi, xaltasidan non olib yebdi. Ochlik va tashnalikdan holsizlangan saxiy:

– Do'stim, menga ham ber, – debdi.

Baxil nafrat bilan:

– Men sening holingga tushishni istamayman, – debdi.

U tuyaga minib, o'z yo'ldoshini cho'lda yolg'iz tashlab ketibdi.

Saxiyning yo'l yurishga madori qolmabdi. U ochligi va tashnaligini qondirish uchun ko'karib turgan bir o'tni og'ziga solib chaynabdi. Bu o'tning ajoyib xosiyati bor ekan, saxiy hamma gi-

yoh va jonivorlarning tilini tushunadigan bo'libdi. Kech kirib qolganida u qum ustiga yotibdi, lekin och va tashna bo'lganidan ko'ziga uyqu kelmabdi. Qorong'i tushganda ikkita toshbaqa o'rmalab kelibdi.

– Qizig'i shuki, bu ahmoq tashnalikdan o'layapti, yarim soat yo'l yursa, quduqqa yetadi, – debdi bir toshbaqa.

– Men ham shunga hayronman, – debdi yosh toshbaqa, – ahmoq ochidan o'lay deyapti, bo'lmasa quduqning yonidagi o'tovda bir ko'chmanchi turadi, suti ham, go'shti ham bor, o'sha yerga borsa bo'lar-di.

Saxiy o'z qulog'iga ishonmay, sekin-sekin o'sha tomonga qarab tuyada yo'lga tushibdi. Quduqni topib, to'yguncha suv ichib, mehmondo'st ko'chman-chining uyida ovqat yebdi.

Erta bilan saxiy ko'chmanchidan oziq-ovqat so-tib olibdi. Shu yerda u baxil bilan yana uchrashib qolibdi. Baxil yana u bilan birga ketaveribdi. Sa-xiy ko'chmanchidan olgan go'sht haqini to'layot-ganida baxil uning hamyoni katta ekanligini sezib qolib, niyati buzilgan ekan. Ular bir qish-loqqa yetibdilar. Saxiy uyquga ketganida baxil

bildirmay uning hamyonini va tuyasini o'g'irlab, qochib ketibdi.

Saxiy juda qayg'uribdi. Nailoj, u o'ziga bir tayoqdan hassa yasab, unga suyangancha yo'lga tushibdi. Ketaturib, devor ustida o'tirgan ikkita zag'izg'onning gaplarini eshitib qolibdi:

– Sen o'z uyangga qayerdan oltin tangalar tashib kelasan? – deb so'rabdi bir zag'izg'on yonidagi sherigidan.

– Manavi baland terakning tagida ko'r sichqon turadi, – debdi ikkinchi zag'izg'on, – u yetti podshoning xazinasini topibdi. Ko'r sichqonning oyog'i ostidan tangalarni o'g'irlab qochaman, u esa ko'rmaydi.

Saxiy terakning tagini qazib, yetti podshoning xazinasini topibdi. Shaharga yetib kelib, karvonsaroyda to'xtabdi. Saxiy o'z odatiga ko'ra pulni aymabdi, kambag'allarga yordam berib, ularni xursand qilibdi.

Baxil saxiyning boyib ketganini va gadoylarga ayamay sadaqa ulashayotganini ko'rib, hasadi kelibdi, alamiga chiday olmay, uyqusi qochibdi. Podshoga borib:

– Podsho hazratlari, sizning shahringizdagi karvonsaroyga bir qaroqchi kelib tushdi. Uni qamashga amr qiling, – debdi.

Podshoning posbonlari karvonsaroyga kelib, saxiyni qamab, pullarini tortib olishibdi va o‘zini podsho huzuriga keltiribdilar.

– Sen qaroqchisan, – deb baqiribdi podsho, – ertaga seni dorga ostiraman. Saxiy o‘zining kimligini va nima voqealar bo‘lganini so‘zlabdi, lekin podsho uning gapiga quloq solishni istamabdi. Pullarni xazina foydasiga olibdi. Baxilni haydab yuboribdi, saxiyni zindonga soldiribdi.

Saxiy qorong‘i zindonda qayg‘urib o‘tirib, “Bu balo boshimga qaydan keldi?” deb o‘ylabdi. Shu paytda teshikdan ikkita sichqon chiqib, bir-birlari bilan so‘zlasha boshlashibdi:

– Podshoning qizi ko‘r bo‘lib qoldi. Shunday chiroyli qizga kishi achinadi, – debdi bir sichqon.

– Kimki malikaning ko‘zini davolasa, podsho uning boshidan tilla tanga sochadi, – debdi ikkinchisi.

– Ba‘zi birovlar kaltafahm-da, – debdi birinchi sichqon, – uni davolash oson. Cho‘lda kal Abdul-la degan odam qo‘y boqib yuradi. Suruvning ichida qo‘tir echki bor. O‘sha echkining soqolidan ikki

tola olib yondirib, kulini malikaning ko'ziga bossa ochiladi.

Sichqonlar ketgach saxiy eshikni qattiq taqilatib:

– Men hakimman, men tabibman, ochinglar, – deb qichqira boshlabdi. Uzoq qichqirsa ham zindonbonlar uning gapiga quloq solishmabdi. Nihoyat, zindonbonlardan biri podshoning huzuriga kelib tiz cho'kib:

– Zindondagilardan biri, “Men hakimman, men tabibman” deb qichqiryapti, – debdi.

– Tez bu yerga olib kelinglar, – debdi podsho.

Saxiyni podshoning huzuriga boshlab kelibdilar.

– Ha, sen edingmi, qaroqchi? – debdi podsho, – nima deb qichqiryapsan? Baribir kuning bitgan.

– Men qaroqchi emasman, – debdi saxiy, – men ulug' tabibman. Men bir zumda qizingizning ko'zini tuzataman.

Podsho uning so'ziga ishonmabdi, lekin posbonlarga uni cho'lga boshlab borishni buyuribdi. Cho'lda kal Abdulla qo'y boqib yurgan ekan. U qo'tir echkinining soqolidan yarmini yulib olib, sichqonlarning aytganini qilib, malikaning ko'zini tuzatibdi. Malika ko'zini ochibdi, podsho behad xur-

sand bo'lib, saxiyga ko'p oltin in'om qilibdi, o'z us-tidagi choponini yechib beribdi.

Saxiy og'ir qopdagi oltinlarni ko'tarib, yangi ipak to'nini kiyib saroydan chiqqanida baxil uning oldiga kelib ta'zim qilibdi.

– Nima deysan? – deb so'rabdi saxiy.

– Nima sababdan sening omading keladi-yu, mening boshimga falokatlar tushaveradi. Shuni menga tushuntir. Men seni och va tashna holda cho'lda tashlab ketdim, bir soat o'tmasdan sen quduqni topib, ko'chmanchining uyida mehmon bo'lding. Men seni tunab ketdim, bir kun o'tmay sen yana boyib ketding. Mening chaquvim bilan seni qamadilar, bor-yo'g'ingni tortib olishdi, o'zingni zindonga soldilar. Bir kun o'tmasdan sen yana boyib ketding. Men-chi? Meni esa saroydan haydab chiqardilar.

Saxiy baxildan ko'p yomonliklar ko'rgani uchun unga qaragisi ham kelmabdi, lekin o'zining saxiylik tabiati g'olib kelib, ajoyib xosiyatga ega bo'lgan o't to'g'risida gapirib beribdi.

– O'sha o'tni yeb, jonivorlarning gapiga quloq sol. Dunyodagi sirlardan xabardor bo'lasan, – debdi.

Baxil shoshib-pishib, hatto saxiyga rahmat ham aytmasdan, tuyaga minib, sahroga jo'nabdi.

O'sha o'tni yeb, jonivorlar tilini tushunadigan bo'libdi. Toshbaqa, zag'izg'on, sichqonga o'xshagan mayda-chuyda jonivorlarning gapiga quloq solib yuramanmi, – debdi u o'z-o'ziga, – kichik jonivorlar kichik sirlarni biladi. Katta jonivorlar katta sirlarni biladi.

Sahroda tentirab yurib, bir g'ordan kechqurun arslon, yo'lbars, bo'ri va tulki chiqqanini ko'ribdi.

– Ana shularning gapiga quloq solish kerak, – debdi.

Baxil qo'rqqoq ekan, lekin ochko'zligi qo'rqqoqligidan ustun kelibdi va u yirtqich hayvonlarning g'origa kirib yotibdi.

– Bu yerdan odam isi kelmoqda, – debdi arslon.

– Ha, bu yerda allakim borga o'xshaydi, – debdi yo'lbars.

– Bu yerda odam bor, – deb uv tortibdi bo'ri. – U bizning tungi ovqatimizga o'z oyog'i bilan kelibdi!

Jonivorlar baxilga hujum qilib, uni tilka-pora qilishibdi.

**Mavzuga oid maqollar:**

*Baxil der hamisha "yo'q"  
Saxiy yo'q bo'lsa ham to'q.*

*Baxildan osh so'raguncha,  
Gadoydan osh so'ra.*



## NODONLIK

**Nodon – tushunchasi, fahm-u farosati no‘noq, ilm-u ma‘rifatdan yiroq, ongi tor kishidir.**

**Ham jismonan, ham ma‘nan “Pahlavon” unvoniga haqdor sanalgan bobolarimizdan biri Pahlavon Mahmud hazratlari mazkur sifatdagi kishilardan bezorlik izhor qilib quyidagi ruboiyni bitganlar:**

**Yuz ming Ko‘hi Qofni kelida tugmoq,  
Dil qonidan bermoq falakka bo‘yoq,  
Yoinki bir asr zindonda yotmoq –  
Nodon suhbatidan ko‘ra yaxshiroq.**

## OYNI OLMOQCHI BO‘LGAN SARDOR

*(Turk xalq ertagi)*

Qadim zamonda anatoliyalik bir boyning go‘zal-likda tengi yo‘q bir qizi bor ekan. Qizning ipak sochlari taqimini o‘par, qirqqan bilan qisqarmas, shu

zahotiy oq avvalgidek bo'lib qolaverar ekan. So-chining tolasidan atlas bilan kimxob to'qilar, sochini maxsus idishga solinib, undan mushki anbar olinar, og'zida esa shirin-sharbat mevalar paydo bo'lar ekan. Undan totib ko'rgan kishining umriga umr qo'shilar ekan. Birona novdaga qo'l tekkizsa, novda tokka aylanar ekan. Uning labi tekkan suv sharbat bo'lib qolar ekan. Nazari tushgan yer serhosil bo'lar, Quyosh mudom uning boshiga o'z nurlarini sochib turar ekan.

Boy dengizning ko'rkam ko'rfazi sohiliga qizi uchun rang-barang marmar toshlardan saroy solib beribdi.

Sehrlil qiz o'z saroyida yashay boshlabdi. Ko'p o'tmay saroyning atrofida gullab-yashnayotgan bandargoh port shahri paydo bo'libdi. Boshqa shaharlarning xalqlari bu yerga havaslanib, zavq-shavq bilan qarashar ekan.

Kunlardan bir kuni dengizning naryog'ida yashovchi bir yovuz sardor qizning ta'rifini eshitib, unga oshiq bo'lib qolibdi. Uning ajoyib shahrini fath etib, qizni qo'lga tushirmoqchi bo'libdi.

– Jangchilarim tayyor bo'lishsin! – deb buyuribdi u. – Biz o'sha gullab-yashnagan mamlakatga yurish qilamiz!

Kunlardan bir kuni erta bilan jangchilarning katta bir guruhi shaharga o'q yog'dirib, ajal urug'ini sochibdi. Shaharni bosib olib, aholini asir qilibdi. Jangchilar omborlarni talab, mol-mulklarni tashib chiqishayotganda, sardorlari to'g'ri marmar saroyga, sehrli qizning huzuriga boribdi.

– Mana, endi sen menikisan! – debdi u qizga. – Endi sening ipak sochlaringni men tarayman. Yuzlaringdan to'kiladigan gullarni o'zim teraman. Og'zingdan shirin-sharbat mevalarni olib yeyman. Sen nazar tashlagan yerlarda yetishgan mo'l hosil, uzum va sharbatlar – bari meniki bo'ladi!

Lekin... qizning yuzidan gullar to'kilmay qo'yibdi. Og'zidan mevalar paydo bo'lmabdi. Qo'ng'ir sochlari ipak tola bermay qo'yibdi. Ko'zlari hech narsaga e'tibor bermabdi. Qizda hayot alomatlari so'nibdi. Buni ko'rib toshdek qotgan Sardor hamma yurtlarga odam yuborib, sehrgar, jodugar va azayim-xonlarni chaqirtiribdi-da, ularni qizni avvalgi holi-ga qaytarish yo'llarini topishga majbur qilibdi.

Ularning hammalari to'planishib:

– Ey ulug' Sardor, sehrli qizni qo'lga kiritib, u bilan bir shaharda yashash juda mushkul ish. Buning uchun bir shart bor. Shuni bajarish kerak, – deyishibdi.

Sardor ularga:

– Qanaqa shart bo'lsa ham bajaraman, – debdi.


Shunda bosh sehrgar zo'rg'a o'rnidan turib, Sardorning qo'lidan tutib derazaning oldiga olib boribdi.

– Hov anavi yerga borasan-da, oyni olib uni sindirasan. Shundan keyingina shahar seniki bo'ladi. Qiz ham senga kulib qaraydi. Ana shundan keyin qiz turgan joydagi hamma uzum va anjirlarni terib tamomlay olmasan.

Sardorning nayzasi uzun-u, aqli qisqa ekan, sovuти og'ir-u miyasi yengil ekan. U oyga qarab: "Bu ishni uddalasa bo'ladi. Oy unchalik uzoqda emas. Baland tog' cho'qqisining shundoq tepaginasida, qorong'i zulmat qo'ynida yolg'iz o'zi osilib turibdi", deb o'ylabdi.

– Shuni qiyin deypasanmi? – debdi Sardor. – Hoziroq borib toqqa chiqaman. Oyni olib, tizzamga bir urib parchalayman-da, basharangga otaman!

– Sen buni oson deb o'ylama, – debdi uni ogohlantirib sehrgar. – Oy senga yaqin ko'ringani bilan, aslida u juda olisda. Kichik ko'ringani bilan aslida u juda katta. Uni yolg'iz deb o'ylama, uning qo'riqchilari juda ko'p. Uning qo'riqchilari osmondagi yulduzlar kabi. Ularning qurollari chaqmoqdan ham shiddatliroq. Sehning quvvati ana shunda.



Sardor bu gaplarga quloq solmabdi. Jangchilari yug'ibdi-da, oyni olish uchun o'sha toqqa tomon jo'nab ketibdi.

Tog'lar birin-ketin ularning yo'lini to'sishibdi. Dalalar, jahannamday chuqur jarliklar uchrab, ularning tinkasini quritibdi. Kunduzi issiq rosa qovuribdi, kechasi sovuq toza azob beribdi. Jangchilar yiqilib-surilib anchagina yo'l yuri-shibdi-yu, lekin hamon yo'lning cheki ko'rinmas emish. Manzili yaqinga o'xshab ko'ringani bilan kumush oy juda ham olisda yarqirab turarmish.

Va nihoyat ular tog'ning tepasiga chiqishibdi. Ne ko'z bilan ko'rishsinki u yerda kaftdek silliq tekislik yastanib yotganmish-u, uning olis bir joyida oy bemalol uxlar, uning atrofi esa huvillagan bo'shliq emish.

Birdan shiddatli bo'ron boshlanib bulutlarni yerga uribdi, qoyalar larzaga kelib, chaqmoq chaqibdi. Tog' gumburlabdi. Osmon o'z xazinasini sergaklik bilan qo'riqlabdi. Yulduzlar saf tortib jangga tayyorlanishibdi. Saflarining orqasiga esa oyni yashirib qo'yishibdi. Sardor bilan jangchilarning ustiga uchqunlarni yomg'irday yog'dirishibdi.

Jangchilarni titroq bosib, nayzalari qo'llaridan tushibdi. Ular dovdirab, qayoqqa ketayotganlarini

bilmabdilar. Bir mahal qarasalar, yana it azobida ko'tarilgan tepaliklaridan qaytib tushib qolgan-mish. Sardorning boshi jarohatlanibdi. U qoyaga suyanib ho'ng-ho'ng yug'labdi:

– Bu ish mening qo'limdan kelmas ekan. Men bo'ronni yenga olmayman, yulduzlarni bittadan urib tushirolmayman. Oyni sindirishga qodir emasman, – debdi.

Shunday qilib, u o'sha qutlug' diyordan jo'nab ketishga majbur bo'lgan ekan.

### **Mavzuga oid maqollar:**

*Adashgan aqldan ozar.*

*Ahmoqning o'zi bilmas,  
O'zgani ko'zga ilmas.*

*Ahmoqqa aytgan bilan gap uqmas,  
Xarsangga qoqqan bilan mix o'tmas.*

## TADBIRKORLIK

***Biror ishni, maqsadni amalga oshirish uchun puxta o'ylab tuzilgan, ishlab chiqilgan chora-lar majmuiga tadbir deyiladi. Ertaning g'amini bugun yeb, mustahkam o'ylab ish tutadigan inson tadbirkordir.***

### DONISHMAND HOKIM

*(Hind xalq ertagi)*

Bir bola har kuni o'rmondan o'tin keltirib sotib, kun kechirar ekan. Bir kuni u tushgacha o'tin kesib, keyin vodiya biroz dam olgani tushibdi. Shunda u tugunchasidagi ovqati va bir necha kun ichida ishlab topgan puli yo'qolganini payqab qolibdi.

Bechora bola tugunchasini qo'yib ketgan yo'l chetidagi tosh ustida o'tirib, achchiq-achchiq yig'labdi. Yo'ldan o'tgan yo'lovchilar undan nega yig'layotganini so'rashibdi. U esa noni va pulini o'g'irlatib qo'yganligini aytibdi. Bolaning boshiga tushgan

tashvishni eshitganlar astoydil unga achinibdilar. O'tkinchilar bolaga taskin berish uchun har xil gap aytar, lekin ulardan birortasi biror yordam berolmas ekan.

Ana shu yo'ldan bir hokim o'z soqchilari bilan o'tib borayotgan ekan. U ham bolaning oldida to'xtab, undan nega yig'layotganligini so'rabdi. Bolaning javobini eshitib:

– Aybdorni topganim bo'lsin! – deb xitob qilibdi. So'ng atrofni ko'zdan kechiribdi. Yaqin orada hech kim ko'rinmabdi. Shunda u soqchilaridan biriga:

– Hammasiga mana shu tosh aybdor. Buni ko'tarib, shaharga eltgin. Ertaga uni mahkamaga olib kelasan, – debdi.

Soqchi toshni ko'tarib olibdi. Hokim esa bolaga indinga mahkamaga borishini tayinlabdi.

Bu gayritabiiy voqeadan butun shahar ahli ogoh bo'libdi. Shuning uchun ham qozining mahkamasiga juda ko'pchilik kelibdi. Hamma joy-joylariga o'tirib olganlaridan keyin hokim:

– Mana bu tosh o'g'irlik qilgani uchun uch yil qamoq jazosiga hukm qilinadi, – debdi.

O'tirganlar bu gapni eshitib, qah-qah urib kullishibdi. Ammo hokim qovog'ini solib, o'tirganlarga shunday debdi:



– Kimki bunga kulgan bo'lsa, majlisga nisbatan hurmatsizlik qildi. Buning uchun har biringiz bir rupiyadan jarima to'laysiz. Har biringiz o'ng qo'ldagi eshikdan chiqib, u yerda turgan suv to'la idishga tanga tashlaysiz.

Odamlar nima ham deyishardi, jarimani to'lashdan boshqa iloj yo'q. Ular navbat bilan o'ng qo'ldagi xonaga chiqib, suv to'la idishga tanga tashlashibdi.

Oxirida bir odam qolibdi. U ko'mirdek qoraygan qo'llari bilan qo'rquvdan dir-dir titragancha suv ichiga tangani zo'rg'a tashlabdi. Tanga suv ichiga tushishi bilan yuzasiga yog' qalqib chiqibdi. Shunda hokim o'sha notanish kishining oldiga borib:

– Haqiqatni yashirib bo'lmaydi. Qani, bo'yningga ol, bolaning pulini sen o'g'irlagansan, – debdi.

Haligi kimsaning a'zoyi badani qaltirab, o'g'irlikni bo'yniga olibdi. Bolaga shu zahotiy oq pulini qaytarib beribdi,

Gap shundaki, tugunchadagi pullarga ovqat yog'i tekkan bo'lib, o'g'ri tangalarni suvga tashlaganida, o'sha yog' darhol yuzaga qalqib chiqqan ekan. Hokim esa buni darhol payqab, o'g'ri kimligini topgan ekan.

## DONO QUYON

(Hind xalq ertagi)

Qadim zamonda bir xonadonda aka bilan singil yashagan ekan. Ota-onalari o'lib ulardan qolgan merosni o'zaro bo'lib olishmoqchi bo'lishibdi. Navbat hovlidagi buqa bilan sigirni bo'lishga kelganda akasi buqani olishga rozi bo'libdi, singilga sigir tegibdi.

Shunday qilib meros bo'lish ortiqcha janjalsiz o'tibdi. Ammo oradan bir oz vaqt o'tgandan so'ng sigir buzoqlabdi. Akasiga buzoq yoqib qolibdi. U yarim tunda molxonaga borib buzoqni onasidan ajratib, buqaning yoniga keltirib qo'yibdi. Sigir emas, buqasi bolalaganday qilib ko'rsatmoqchi bo'libdi. Erta bilan janjal boshlanibdi.

Singil: "Bu mening buzog'im!" desa, aka: "Yo'q, bu meniki!" dermish. Oxiri qozining oldiga borishibdi. Aka himoyachilikka qushni yollabdi, singil bo'lsa quyonga murojaat qilibdi. Qozi bu janjalli ishni ko'rib chiqishni kelasi kun ertalabga tayinlabdi.

Tayinlangan vaqtda singilning himoyachisi quyondan bo'lak hamma yig'ilibdi, quyonni bir

oz kutishlariga to'g'ri kelibdi. Oxiri u ham yetib kelibdi.

– Hoy quyon, vaqtning qadriga yetmaysan-u, yana oqlovchi vazifasini zimmangga olyapsan-a! – deb ta'na qilibdi qozi unga.

– Yo'q, janob, – o'zini oqlay boshlabdi quyon. – Men judayam vaqtning qadriga yetaman. Lekin nima qilay, juda ham muhim ish bilan ushlanib qoldim.

– Bu ishdan ham muhimroq qanday ish ekan u? – deb so'rabdi qozi undan.

– Ey janob, – debdi quyon. – Boqqa o't ketdi, unda yashayotganlarga rahmim kelib, yong'inni o'chirish maqsadida dengizdan savatda suv tashidim. Shuning uchun kech qoldim.

Qozi xoxolab kulib yuboribdi.

– I-ye, boqqa o't ketadi-yu, nahotki bizlar bexabar qolamiz?

Undan keyin, qanday qilib savatda suv tashib bo'larkan? Chamamda, miyang butunlay aynib qolgan ko'rinadi, quyonvoy, bo'lmasa bunaqa bo'lmag'ur gaplarni aljiramasding! – debdi qozi.

Shunda quyon:

– Agar bu aljirash bo'lsa, unda buqaning tuqqanini qayerda ko'rgansiz? – debdi.

– Obbo dono quyon-e, haqiqatni isbotlash uchun topgan tadbiringga qoyilman! – deb quyonni maqtabdi qozi va o’sha zahotiy oq singilning foydasiga qaror chiqaribdi.

***Mavzuga oid maqollar:***

*Hiyla bilan arslon tutilar,  
Kuch bilan sichqon tutilmas.*

*Tadbirda taqdir hayron.*

*Tadbirning yangi bilan  
Taqdirni yashirib bo’lmas.*

## O‘JARLIK

**“Qaysarlik va manmanlik – nafsning shioridir”,  
deyishadi.**

**Odatda, boshqalarning gapiga quloq solmay, yon bermay, faqat o‘z fikrini ma’qullaydigan, o‘z fikrini o‘tkazishga astoydil urinadigan odamlarga nisbatan o‘jar, qaysar sifati ishlatiladi. Bunday insonlar, ko‘pincha, hech narsa bilan hisoblashmay, haq va botilning rioyasini qilmay ish tu-tishi natijasida hayotda anchagina xatolarni sodir etadi. Shunday ekan, soya kabi inson bilan izma-iz yuradigan badfe’llikning ayni mulozimidan qush kabi qochmoq lozim.**

## O‘JAR ER

(Fors xalq ertagi)

Bor ekan-da, yo‘q ekan, qadim zamonda bir er-xotin bor ekan. Xotini anchagina ishchan, g‘ayratli ekan-u, eri bo‘lsa ishyoqmas, yalqov ekan. Uning yalqovligi har kuni xonadonda janjal chiqishiga sabab bo‘lar ekan. Axiri xotini o‘zini tuta olmay eriga debdi:

– Quloq sol, erjon, bu qilig‘ing mutlaqo o‘zingga yarashmaydi. Ertalabdan-kechgacha uydan tashqariga chiqmaysan. Bu yerdagi cho‘pni u yerga olib qo‘ymaysan. Hech bir ish qilmaganing kamdek, loaqal ko‘chaga chiqib, sof havodan nafas olishni xayolingga ham keltirmaysan.

– Ko‘chada nima qilaman? – debdi er. – Otam menga ho‘kiz, sigir, qo‘ylar meros qoldirib ketgan. Podachilar menga sut, jun, pul keltirib turishibdi. Hech narsadan kamchiligimiz yo‘q, mamnun yashayapmiz. Supurish-sidirish, bichish-tikish kabi uy yumushlarini sen bajarishing kerak.

– Og‘ildagi buzoqni ham men sug‘orishim kerakmi? – debdi xotini. – Bundan keyin men bu ishni qilmayman. Kerak bo‘lsa buzoqni o‘zing sug‘oraver!

– Bo‘lmasa, senga nega uylanganman?  
– Har holda menga buzoq sug‘orishim uchun uylanmagandirsan?!

– Men nima desam beka-u ko‘st bajarishing kerak! Chaqirgan zahotim oldimda bo‘lishing shart! Hatto o‘zingni tomdan tashlagin desam ham bajarishing kerak. Xotin degan erning buyrug‘ini jon deb bajo keltiradi.

– Bekor aytibsan, unday bo‘lmaydi, – debdi xotini.

Buzoq bahona ular rosa janjallashibdilar. Axiri shu kuni xotini buzoqni oxirgi marta sug‘oradigan bo‘libdi. Undan keyin, ertaga birinchi bo‘lib kim gapirsa, shu sug‘oradigan bo‘libdi. Ertasiga xotin barvaqt turib, o‘rin yig‘ib, hovli supuribdi. Ertalabki nonushtani tayyorlabdi. Lekin churq etib og‘iz ochmabdi. Xotini erining oldida tursa, beixtiyor biror narsa deb qo‘yishidan qo‘rqib, eshikni ochiq qoldirib qo‘shnikiga chiqib ketibdi.

Xotini chiqib ketgandan so‘ng eri ko‘cha eshikning ostonasiga kelib o‘tiribdi. Shu payt gadoy kelib, undan hol-ahvol so‘rabdi. U har qancha yalinmasin, er miq etmabdi.

Shunda gadoy, uy egasi kar bo‘lsa kerak, deb o‘ylabdi. U bo‘lsa: “Bu xotininimning meni gapirti-

rish uchun o'ylab topgan hiyla-nayrangi bo'lsa kerak. Gapirgudek bo'lsam, u yugurib keladi-da: "Bor, buzoqni sug'orib kel", deydi. Osmon uzi-lib yerga tushsa ham miq etmayman", – debdi o'ziga-o'zi. Gadoy uy egasini gapirtira olmagach uyga kiribdi. Non, pishloq va hokazolarni xurjuniga solibdi-da, chiqib ketibdi. Uy egasi buni ko'rib tursa ham, buzoq sug'orishdan qo'rqib, hech narsa demabdi.

Gadoy ketgach tanbal va qaysar erkakning oldiga avval sartarosh, keyin attor ayol, so'ng o'g'ri kelibdi. Sartarosh erkakning soqolini olib, sochini jingalak qilibdi. Attor ayol uning yuziga qizil surtibdi. O'g'ri bo'lsa uyga kirib barcha qimmatbaho narsalarni qopiga joylab, orqalab chiqib ketibdi.

Buzoq bechora og'ilda tashnalikdan o'lishiga oz qolibdi. Jon achchig'ida shoxi bilan eshikni ochibdi-da, hovlining o'rtasiga kelib ma'ray boshlabdi.

Shu payt xotini qo'shninikidan qaytib chiqibdi. Buzoq xotinni ko'rishi bilan uning yoniga yugurib kelib undan suv so'ray boshlabdi. Shu payt xotin erini ko'rib qolibdi, lekin uni tanimabdi. Uning oldiga borib:

– Sen bu yerda nima qilib yuribsang? – debdi.



Shunda er sevinib ketganidan:

– Yutqazding! Yutqazding! Bor, buzoqni sug‘or, – deb baqiribdi.

Xotin buzoqni sug‘oribdi. Uy ichkarisiga kirib, bor budini o‘g‘ri o‘marib ketganini fahmlabdi.

– Nima balo, o‘lganmiding yoki uxlab qoldingmi?

– Bir narsa desam, buzoqni sug‘orishimga to‘g‘ri kelardi. Shunung uchun indamadim.

– O‘jarliging boshingga yetib davlatingdan, or-nomusingdan ajralibsana, yana buzoqni sug‘or-maydigan bo‘ldim, deb quvonasan. Undan ko‘ra o‘g‘rining qachon, qayoqqa ketganini ayt?!

Ayol so‘ray-so‘ray o‘g‘rining izini ham, o‘zini ham topib, bisotini qaytarib olibdi. Yonidagi buzoq o‘g‘rini yengishda unga yordam beribdi. Ayol buzoqni yetaklab, uyiga qaytibdi.

Buzoq o‘jar erkakni ko‘rib, xuddi o‘g‘riga tashlangandek unga ham hujum qilmoqchi ekan, xotini buni sezib, uni ushlab qolibdi.

Buzoq boshini quyi solganicha og‘ilxonaga yo‘l olibdi.

Shu kundan boshlab eri to soqol-mo‘ylovi o‘sguncha buzoqqa o‘t bilan suvni o‘zi berib turibdi.

Ularning uyi avval qanday bo‘lsa, hozir ham shunday emish. Erining yuzidagi pardozi hali ham

ketmaganmish. U hamon sukut saqlab, jimgina o'tirarmish.

Yuqoriga chiqsak osmon, pastga tushsak yer, shu bilan ertagimiz tamom ekan.

***Mavzuga oid maqollar:***

*O'zi bilmas, kishidan so'ramas.*

*Anqov o'yin buzar,  
Tentak – uyin.*

## MOHIRLIK

***Daraxt kesayotgan duradgorning arrasining “tish”i daraxtning “ko‘z”iga to‘g‘ri kelib qolsa, uning harakati sezilarli tarzda sekinlashib, ishi bitishi uzoqqa cho‘ziladi. Shu bois fahmi o‘tkir duradgor daraxtning “ko‘z”ini nazarda tutib, undan “aylanib” o‘tish uchun bor mahoratini ishga soladi. Shunday qilsa, uning ish jarayoni oson, tez va silliq kechadi. Balki shu boisdur, xalqimiz o‘z ishining ustasi, mohir insonlarga nisbatan “ishning ko‘zini biladi” degan iborani qo‘llaydi.***

## USTA TESHAVOY

(hikoyat)

Qadim zamonda Teshavoy degan usta o'tgan ekan. Uning daraxtlari juda ko'p ekan. Teshavoy kun bo'yi turli-tuman yog'ochlardan chiroyli buyumlar yasas ekan.

“Daraxtlar borgan sayin ko'payishining boisi usta Teshavoy bitta daraxt yiqitsa, o'rniga ikkita ko'chat ekadi”, deb o'ylashar ekan odamlar, ammo ustaning bundan boshqa muhimroq siri ham bor ekan. Bu sirni usta o'g'illariga aytishga qaror qilibdi. Teshavoyning uch o'g'li birin-ketin voyaga yetishibdi. O'g'illari ulg'aygan sari usta qarib, madordan qola boshlabdi. Kunlarning birida usta o'g'illarini qoshiga chaqirib, shunday debdi:

– Har biringiz o'rmonga borib, birorta buyum yasashga arzimaydigan yog'och topib kelinglar.

Birinchi bo'lib katta o'g'il o'rmonga yo'l olibdi. Qing'ir-qiyshiq yog'ochni tezgina topibdi. Yog'ochning g'ola qismi bug'uning tumshug'iga, ikkita ulkan shoxchasi uning shoxlariga juda o'xsharkan. Bundan na imorat, na eshik, na xon-

taxta yasashda foydalanish mumkin, deb o'ylabdi u o'zicha.

– Mana, – debdi u o'sha yog'ochni sudrab kelib. – Hech narsaga yaramaydiganini topdim. O'rmonda bunaqa shox-shabbalar qala-shib yotibdi...

Usta Teshavoy yog'ochni ko'rib, g'oyat quvonib ketibdi.

– Sen eng noyob buyum bo'ladigan yog'ochni keltiribsan-ku, – deb istehzoli kulibdi tong'ich o'g'liga. – Axir bundan zo'r omoch yasash mumkin. Teshavoy qo'liga teshani olib ishga kirishibdi. Tarvaqaylagan shoxlarni tartibga keltiribdi, ular chiroyli dasta bo'libdi. Bug'uning tumshug'iga o'xshash qismini yo'nib silliqlabdi-da, ichiga kuraksimon temir qoqibdi. O'g'illarining ko'z oldida juda alomat omoch paydo bo'libdi.

Navbat o'rtancha o'g'ilga yetibdi. U ham bo'lmag'ur yog'och izlab o'rmon oralabdi. Har xil tarvaqaylab o'sgan daraxt-u shox-shabbalar orasidan buyum bo'lishga arzimaydiganini izlay boshlabdi. Ko'p o'tmay, o'rmonning quruq joyidan bitta yog'ochni tanlabdi. Yo'g'onligi bilakdek keladigan bu yog'och chunonam buralib-buralib o'sgan ekan-ki, undan biror narsa yasash mumkinligiga o'rtancha o'g'ilning ko'zi yetmabdi. O'sha yog'ochni

uyiga sudrab kelibdi. Uni ko'rib otasining chehrasi yorishibdi.

– Men ko'pdan beri izlab, topolmay yurgan yog'ochni keltiribsan-ku, – deb o'rtancha o'g'lini maqtagan bo'libdi usta. – Akang omochbop yog'ochni keltirgandi. Sen bo'lsang ho'kizning bo'yniga bo'yunturoq bo'ladigan yog'och topibsan!.. Chol tag'in ishga kirishibdi. Hash-pash deguncha juda mustahkam bo'yinturoq yasabdi-da:

– Bu matohni ham tabiiy shakllanib o'sgan daraxtdan yasagan ma'qulroq, – deb qo'shib qo'yibdi.

Buyum bo'lishga arzimaydigan yog'och topib kelish gali kenja o'g'ilga yetibdi. U ham akalari singari o'rmonga yo'l olibdi. Hadeganda qaytaver-mabdi. Shu ketgancha uch kecha-kunduz daragi bo'lmabdi. Axiyri uyiga horib-charchab qaytibdi.

– Xo'sh, sen qanaqa yog'och keltirding? – deb sa-  
volga tutibdi otasi.

Kenja o'g'il vazmin bosh chayqab, javob beribdi:

– Butun o'rmonni kezdin. Turli-tuman yog'ochlar juda serob ekan. Biroq, ular orasidan buyum bo'lishga yaramaydiganini topa olmadim...

– Baraka top, – debdi chol kenja o'g'lining yelkasiga qoqib, – sendan haqiqiy usta chiqishiga ishonsam bo'ladi. Chindan ham yog'ochlarning bu-

yum bo'lmaydigan yo'q. Mohir ustagina yog'ochlarning hech birini isrof qilmay, barchasini o'z o'rnida sarflaydi. Bu tadbir iste'dodli ustaning mahoratiga bog'liq! Daraxtlarimiz yil sayin gurkirab o'sishining sirini payqagan bo'lsang kerak: ya'ni men hech qachon biror buyum yasash uchun duch kelgan daraxtni kesmayman. Hatto, oddiy cho'pniyam huda-behuda yo'nmayman, isrof qilmayman! Avvalo, yasaydigan buyumga munosib yog'och izlayman, eng maqbulini tanlab, so'ng ishga kirishaman.

***Mavzuga oid maqollar:***

*Mehnatning ko'zini topgan –  
Boylikning o'zini topar.*

*Har ish o'z ustasidan qo'rqar.*

*Har ishning bir ustasi bor,  
Har ustaning bir ustozini bor.*

## SABRLILIK

***“Sabr – achchiq, ammo foyda beruvchi... Sabr – o‘rtoqdir, suhbati zeriktirarli, ammo maqsadga olib boruvchi... Sabr – tuyadir – og‘ir qadam, lekin bekatga eltuvchidir... Sabr – tabib, badxo‘r dori, bemor undan azob tortadi, ammo so‘ngida sog‘likka erishadi...”***

*Alisher Navoiy,  
“Mahbub ul-qulub”*

***“Sabr shunday kalitdirki, u ocholmaydigan biror eshik yo‘q”.***

*Mine Izgi*

## QANDOLATCHI VA TUZCHI

*(ertak)*

Hali tuz juda ham tanqis bo‘lgan zamonda bir boy tuzchi bo‘lgan ekan, uning tuzi hech ham tuzgamaskan. Nega desangiz, uning g‘aroyib qaynar



xumchasi bor ekan. Tuzchi xumning yoniga borib asta:

– Xumcha, xumcha, tuz ber! – desa o’sha zahotiy oq xumchadan oppoq, tuz qaynab chiqar, to egasi, “bas qil, xumcha”, demaguncha xumcha ishdan to’xtamas ekan. Tuzchining bir qandolatchi o’rtog’i bo’lib, uning ham sehrli xumchasi bor ekan. Qandolatchining xumchasidan esa shakar qaynab chiqar ekan. Tuzchi ham, qandolatchi ham juda saxiy ekan. Qo’ni-qo’shni, qarindosh-urug’dan yordamini ayamas ekan. Ushbu ajoyib xumchalar to’g’risidagi ovoza butun mamlakatga tarqalibdi. Hammaning og’zida xumlarining karomati, xum egalarining saxovati emish. Oxir-oqibat sehrli xumchalarning daragi mamlakat podshohiga ham borib yetibdi. Podshoh uzoq o’ylab: “Bunday sehrli xumchalar faqat mening saroyimga yarashadi”, degan xulosaga kelibdi. U darhol vazirini chaqirtirib, sehrli xumchalarni topib keltirishni buyuribdi. Vazir saroydan chiqib, tuzchining yoniga boribdi-da, xumchasini sotishni so’rabdi.

Tuzchi:

– Afsus, xumchani sotolmayman. Men rosa qirq yil dasht-u biyobonda ter to’kib, suv chiqarib, za-

rang yerni hosildor dalaga aylantirdim. Mehnatdan qochmadim. O'zimni emas, elimni o'yladim. Bu mehnatim evaziga Yaratgan shu xumchani menga in'om etdi. Siz ham shunaqa xumchaga ega bo'lishni istasangiz, huv anavi ikki tog' orasidagi dalaga boring, – debdi.

Noiloj ahvolda qolgan vazir qandolatpazning yoniga boribdi. Undan ham sehrli xumchasini sotishini so'rabdi. Qandolatchi:

– Bu xumcha sotilmaydi. Men ko'p yillar davomida qand lavlagi ekib, undan shakar olardim. So'ng xalqqa ancha arzon narxda sotardim. Bir kuni tush paytida dalaga ishlov berayotib, shu xumchani topib olganman. Demak, Alloh buni menga halol mehnatim evaziga bergan, – debdi.

Shunday qilib, chorasiz qolgan vazir saroyga qaytibdi. U podshohga bor gapni so'zlab beribdi. Vazir xumchalarga erishish uchun faqatgina peshona ter to'kib mehnat qilish lozimligini pisanda qilibdi. Ertasi kuni podshoh o'sha ikki tog' orasidagi qishloq dalasiga yetib boribdi. U yer egasi bilan kelishib, bir yil tinmay ishlabdi. Ammo hosili ko'ngildagidek bo'lmabdi. Ikkinchi yili ham podshoh astoydil yeng shimarib mehnat qilibdi. Lekin hosilni sel olib ketibdi. Holdan toygan podshoh

dalada yil bo'yi ishlash oson emasligini tushunib yetibdi. Dehqonlarning sabr-qanoatiga qoyil qolibdi. O'ziga-o'zi dehqonlarni ortiqcha qiynamaslikka so'z beribdi. Saroyiga qaytgach, ularni barcha soliqlardan ozod qilibdi. Shu kundan boshlab uning yurtida mo'l-ko'lchilik, farovonlik hukm suribdi. Tuzchi bilan qandolatchi ham yurt obod, dasturxon to'kin bo'lishi yo'lida o'z mehnat va muruvvatlarini ayamabdilar.

***Mavzuga oid maqollar:***

*Sabr etgan – murodiga yetgan.*

*Sabr tog'ni yiqitar.*

*Sabr tagi – sariq oltin,  
Sabr bilan chiqar oting.*

## XUDBINLIK

*Xudbinlik – faqat o‘zini o‘ylash insonni to‘g‘ri yo‘ldan adashtirib, boshiga turli xil falokat-u malomatlarning yog‘ilishiga sababchi bo‘ladi. Shu bilan birgalikda xalqning ham nazaridan chetda qoladi. Bu haqda donishmand bobolarimizdan biri shunday deydi:*

*“O‘zni past oldi-yu o‘ sib chiqdi don,  
Qamish bosh ko‘tarib ezildi giryon!”*

### SHAYX CHILI BILAN SHAYTON

*(Afg‘on xalq ertagi)*

Shaytondan juda ko‘p jabr-sitam ko‘rgan shayx Chili uni qidirib topib o‘ldirib, xalqni uning vasasidan qutqarmoqchi bo‘libdi.

Kunlarning birida u shaytonni qidirib dasht-u biyobonda ketayotgan ekan, ro‘parasidan bir odam

kelaveribdi. Ular salomlashibdilar, shunda ro‘para-  
dan kelgan odam:

– Xo‘sh, yo‘l bo‘lsin? – deb so‘rabdi.

– Shaytonni axtarib yuribman, – javob beribdi  
shayx.

– Uni topsang nima qilasan? – so‘rabdi haligi  
odam.

– Uni o‘ldirib, xalqni bir yo‘la undan qutqar-  
moqchiman, – debdi shayx Chili.

Shunda boyagi odam:

– O‘sha shayton men bo‘laman, – debdi.

Shayx unga tashlanibdi-yu, ikki o‘rtada musht-  
lashish boshlanibdi. Oxiri shayx Chili g‘olib kelib,  
shaytonni yerga ag‘daribdi. Keyin pichog‘ini su-  
g‘urib, uni o‘ldirmoqchi bo‘libdi. Lekin shayton uni  
to‘xtatib:

– Shoshmay tur, shayx, o‘ldirishdan avval ga-  
pimga quloq sol, – debdi.

– Gapira qol, – debdi shayx.

– Meni o‘ldirishingdan hech qanday naf yo‘q. Agar  
menga rahm qilsang, foydadan xoli bo‘maydi, – deb-  
di shayton.

– Qanday foyda? – so‘rabdi shayx Chili.

– Agar sen meni tirik qoldirsang, umringning oxi-  
rigacha har kun erta bilan yostig‘ing tagiga yigirma

rupiya (tanga)dan qo'yishga va'da beraman, – debdi shayton.

Shayx buni eshitgach, shu zahoti o'ylab qolibdi: “Darhaqiqat, uni o'ldirganim bilan menga nima foyda? Axir dunyoda u bitta emas-ku, bunaqa shaytonlardan son-mingtasi xayot. Agar men uning gunohidan kechsam, har kun yigirma rupiyadan olib keladi”. Shunday qilib, shayx shayton bilan yarashibdi-da, uni qo'yib yuboribdi. Shayton o'z yo'liga ravona bo'libdi. Ertasi erta bilan shayx Chili yostig'i ostiga qo'lini tiqib qarasa, haqiqatan ham, yigirma rupiya yotganmish. Shayx juda suyunib ketibdi.

Bu hol bir haftacha davom etibdi. Lekin shayx hech kimga churq etib og'iz ochmabdi. “Qiziq, men hech jon koyitmay shaytonning xazinasiga egalik qilyapman”, deb o'ylabdi.

Lekin kunlardan bir kun shayx uyqudan uyg'o-nib, yostiq'i tagiga qo'lini tiqsa, hech nima yo'q emish. Shayx hayron bo'lib, ehtimol, shayton esidan chiqargandir, ertaga ikki kunligini bir yo'la olib kelsa ajab emas, deb o'ziga tasalli beribdi. Biroq ertasi kuni ham yostiq tagidan pul topmabdi. Shayx yana bir kun sabr qilibdi, lekin baribir puldan darak bo'lmabdi. Shayxning jahli chiqib, shaytonni qidirib ketibdi.

Yana xuddi avvalgi uchrashgan joylarida, o'sha dashti biyobonda uchrashibdilar.

– Hoy, aldamchi! O'zi menga nima qilyapsan-a? – debdi shayx shaytonga.

– Senga nima qilibman? – so'rabdi shayton.

– Axir, sen har kuni yigirma rupiyadan yos-tig'im ostiga qo'yib ketishga va'da berganding, men uni har kun yostig'imning tagidan olayotgandim. Mana, bir necha kundirki, puldan da-rak yo'q, – debdi shayx Chili.

– Ey shayxim! Axir, bu otamning qarzi emas-ku. Men senga bir necha kun pul olib borib yurdim, keyin olib borishni to'xtatdim. Agar sen bu holdan norozi bo'lsang, kel, kurashamiz, – debdi shayton.

Shayx o'z kuchiga ishonibdi, axir u birinchi marta shaytonni yenggan edi-da. Ikkovlari yana olisha ketishibdi. Bu safar shayton shayxni ko'tarib, yerga uribdi. Keyin ustiga minib olib yonidan pichog'ini chiqaribdi-da, bo'g'izlamoqchi bo'libdi.

Shunda shayx:

– Ey shayton, sen meni o'ldirishing mumkin, lekin bitta savol berishimga ijozat bersang, – debdi.

– Ber savolingni, – rozi bo'libdi shayton.

– Bundan bir hafta burun ikkovimiz uchrashib, kuch sinashganimizda men g'olib chiqqan edim. Ik-

kovimiz ham sira o'zgarganimiz yo'q-ku, nega bu safar sen g'olib bo'lding?

– Sababi shundaki, birinchi safar sen haqiqat uchun men bilan kurashgan eding. Bu safar esa faqat o'z manfaatini ko'zlab, pul uchun meni qidirishga tushding, ana shuning uchun ham men seni osongina yengdim, – deb javob beribdi shayton.

Shayx Chili nima uchun mag'lub bo'lganini anglagach, shaytonni avvalgi safarning o'zidayoq o'ldirib qo'ya qolmaganiga pushaymon bo'libdi.

***Mavzuga oid maqollar:***

*O'zim degan o'zaksiz ketar.*

*O'zi uchun uxlagan,  
Birov uchun tush ko'rmas.*

*O'zim bo'lay dema, o'zgalar g'amini ye.*



## MAS'ULIYAT HISSI

**Hayotda bilib-bilmay sodir etadigan xatti-harakatlarimiz yuzasidan kimlargadir javob, hisob berishimizga to'g'ri keladi, jumladan, o'z-o'zimizga ham. Mana shu ma'noning haqiqatiga yetib, uni hayotiga joriy qilish insonda mas'uliyat hissini shakllantiradi. Behuda sarflangan vaqtlar, qadriga yetilmagan munosabatlar, qo'ldan boy berilgan imkoniyatlar uchun afsus-nadomatlar chekib o'kinamiz, o'zimizni mas'uliyatsizlikda ayblaymiz. Halollik, samimiylik, mehnatsevarlik, ilmga ishtiyoqmand bo'lish kabi qator fazilatlarining zamiri ham ana shu tuyg'u bilan sug'orilgan.**

## O'YINQAROQ BOLA

(hikoya)

Bilol – o'yinqaroq, qayerda bo'lmasin o'ziga yoqadigan o'yinni topib vaqtini unga bag'ishlaydi, hatto ki maktabga ketayotib ham yo'ldagi allanarsalarga chalg'ib, darsga kechikib boradi. O'g'lining ilm olishda mas'uliyatsizlik qilayotganidan tashvishlangan onasi bu holning rioyasini qilib, Oygul – Bilolning opasiga, ukasini maktabga eltib qo'yishni buyurdi.

Opa-uka maktabga ketarkan, yo'l-yo'lakay katta bir daraxtning yonidan o'tdilar. Bilol shu yerda bir oz dam olaylik deb, oyoq tirab turib oldi:

– Qaniydi, mana shu daraxtning yonida qolib, maktabga bormasam...

– Tezroq yur, darsingga kechikasan, – tortqiladi opa.

– Maktabga borishim shartmi?.. Mana bu bolalarni qarang, guldan gulga qo'nib maza qilib o'ynab yuribdi, – dedi Bilol yo'l yoqasidagi gullar atrofida aylanayotgan arini ko'rsatib. – U yozmaydiyam, o'qimaydiyam. Bolari bo'lsam istagan joyimga uchib-qo'nib sayr qilib yurardim.

– Yanglishding, bolarilar aslo bekorchi emas. Ular bahor kelishi bilan gullardan nektar yig‘ishga kirishadi, qish kunlarida esa asal va mum tayyorlash bilan band bo‘ladi... Hozir sening zimmangda ilm olishdan-da muhimroq vazifa yo‘q. Qadamingni ildamroq tashla, vaq-tim ziq. Seni maktabga olib borgach, bozorga tushib onamning to‘qishlari uchun ip xarid qilishim kerak, – deya Oygul yanada tezlashdi.

Ular biroz yurgach, bir chumchuq ularning yaqinidan pastlab uchib ketdi.

– Mana bu chumchuq g‘irt bekorchi. Koshkiydi uning o‘rnida bo‘lsam!..

– Ukaginam, – dedi Oygul Bilolning boshini silab qo‘yarkan. – U aslo bekorchi emas, unga qara, indagi bolasi uchun tumshug‘ida ko‘tarib olgan may-sani ko‘rdingmi?

Bilol o‘yga cho‘mgancha jimgina yo‘lida davom eta boshladi. Yana ozroq yurgach yo‘llarini kesib chiqqan kuchukchani ko‘rdi-yu, ko‘zlari porlab ketdi.

– Opajon, mana shu kuchukcha bilan bir oz o‘ynay? Ko‘rib turibsiz-ku uning bajaradigan biror yumushi yo‘q!..

Bilol gapini tugatar-tugatmas kimdir kuchukchani hushtak chalib chaqirdi. Hozirgina Bilol-

ga dumini likillatayotgan kuchukcha itoatkorona buyruqqa bo'ysunib, egasining ortidan ergashdi.

Asalari, chumchuq, hattoki kuchukchanning ham ado etishi kerak bo'lgan yumushlari borligi va ana shu ishlarni bajarish uchun ular-ning astoydil tiri-shayotganlarini ko'rgan Bilol o'yladi: "Darslarimni o'z vaqtida qoyillatib bajaraman-da, albatta, do'st-larim bilan o'ynash uchun vaqt topaman. Shubha-siz, onam bunga e'tiroz bildirmaydilar. Shunday ekan, tezroq dars tayyorlashni boshlashim va albat-ta uni yaxshiroq bajarishim shart!"

Bilol bir qarorga kelgach qadamini sezilarli tarz-da jadallatdi, hattoki opasini tezroq yurishga unday boshladi.

### ***Mavzuga oid maqollar:***

*Og'iz – bir, quloq – ikki,  
Bir so'zlab, tingla qirq ikki.*

*Bekor otning boshi o'tlar,  
Bog'liq bo'lsa yaxshi o'tlar.*

## MEHR-OQIBAT

**“Bir-birlaringizga samimiy tabassum-la yuzlanib bo’lsa ham yaxshilik qilinglar”, deyiladi hadisi muborakda. Mehr-oqibat insonlarni bir-biriga bog’laydigan sehri zanjirdir. Mehrni sotib ham, sotib olib ham bo’lmaydi. Mehr-oqibatni unutgan, yaqinlariga uni ravo ko’rmagan inson natijada o’zi ham unga zor-u mushtoq bo’lib, xorlikda hayot kechiradi. Hech qancha fursat o’tmay qilgan yaxshiligi uchun yaxshilik, yomonligi uchun esa albat-ta jabr, zulm tortadi.**

**Atrofimizda shunday insonlar borki, bir umr ularning itoatida bo’lsak-da, zimmamizdagi qarzni aslo ado eta olmaymiz. Jumladan, onaning hurmati, rioyasi.**

**Quyidagi satrga amal qilib yashayotgan bo’lsangiz mehr-oqibat silsilasining mustahkam bir halqasini qo’lga kiritibman, deb hisoblayvering:**

**“Onaning duosi – behisob oltin,  
Oltin terish bilan o’tkaz hayoting.”**

## ONA QARZI

(Hind xalq ertagi)

Rafiq degan bola bo'lgan ekan. Bir kuni u dadasining nimalardir yozayotganini ko'rib, qiziqsinib so'rabdi:

– Dada, nima qilyapsiz? Hadeb nimalarni yoza-siz?

Dadasi shunday javob beribdi:

– Hisobotlarni to'ldiryapman, o'g'lim.

Rafiq hali kichkina bo'lgani uchun „hisobot“ so'zini tushunmabdi.

– “Hisobot” nima degani, dada? – so'rabdi u.

– Hisobotmi? – debdi ota o'g'liga qarab. – Buning ma'nosi shuki, men davlat ishini bajaraman, qilgan ishim uchun davlat menga pul to'laydi. Lekin men qanday ishlar qilganimni, kimlarga qanday ishlar qildirganimni davlat qayerdan biladi? Shuning uchun men falon-falon ishlar bajarildi, shu ishlar uchun menga falon rupiya miqdorida pul to'lanishi kerak, deb qog'oz to'ldiraman. Ana shu qog'oz “hisobot” deyiladi.

Buni eshitib, Rafiqning dilidan shunday o'ylar kechibdi:

“Dadam qilgan ishlari uchun davlatdan pul olar ekanlar, demak, men ham uyda qilgan ishlarim uchun oyimdan pul olishim kerak. Axir, ba’zida oyim kechalari ham ish buyurgan paytlari bo’lgan-ku!..”

Shundan keyin Rafiq bir varaq qog’oz bilan qalam olibdi-da, shunday deb yozibdi:

“Oyimning Rafiqdan qarzi:

Oyim Rafiqdan quyidagicha pul qarz bo’lib, tez orada to’lashi lozim.

Bir oyda ukamni ovqatlantirganim haqi – 1 rupiya 00 paysa.

Bir oyda non keltirib berganim haqi – 0 rupiya 80 paysa.

Bir oyda do’kondan narsa xarid qilib kelganim haqi – 1 rupiya 00 paysa.

Hammasi bo’lib: 2 rupiya 80 paysa bo’ladi.”

Rafiq “hisobot”ni oyisi qand-shakar saqlaydigan javon ichiga tashlab qo’yibdi. Ertasiga kelib, o’sha joyni qarasa... pul yotibdi! Rafiq shosha-pisha pulni olibdi-da, sanab ko’ribdi: roppa-rosa 2 rupiya 80 paysa. U o’zida yo’q suyunibdi. Suyunmay bo’ladimi, bu yoqdan “hisobot” yozdi, bu yoqdan mehnat haqi oldi. Lekin pul bilan birga oyisi bir qog’oz ham qo’ygan ekan. Rafiq qog’ozni olib, undagi yozuvni o’qiy boshlabdi:

“Rafiqning oyisidan qarzi:

Rafiq oyisidan quyidagi miqdorda qarzdor bo‘lib, qarzini tez orada to‘lashi kerak:

9 oy qornimda ko‘tarib yurganim haqi – 0 rupiya 00 paysa.

12 yilgacha uni tarbiya qilish haqi – 0 rupiya 00 paysa.

12 yilgacha uni boqib, qornini to‘yg‘azish haqi – 0 rupiya 00 paysa.

12 yilgacha unga kiyimlar, sut, qatiq va boshqa mayda-chuydalar olib berish haqi – 0 rupiya 00 paysa.

Hammasi bo‘lib: 0 rupiya 00 paysa.”

Rafiq hang-u mang bo‘lib qolibdi. U yugurib borib, oyisining oyog‘ini quchibdi.

– Oyijon! Meni kechiring, ahmoqlik qilibman, xato qilibman! – debdi yig‘lamoqdan beri bo‘lib. – O‘ylab qarasam, har zamonda bajargan xizmatimni ham minnat qilibman sizga. Endi tushundim. Zim-mamdagi qarzingizni umr bo‘yi ham to‘lay olmayman. Uncha-muncha qilgan ishlarim esa bu qarzning mingdan biriga ham arzimaydi!

Soddadil o‘g‘lining og‘zidan bu gaplarni eshitib, ona dil-dilidan suyunibdi va o‘g‘lini bag‘riga bosib debdi:



– O‘g‘lim, halol bo‘l, insofli bo‘l, hech kimga yomonlik qilma. Rostgo‘y bo‘l, ichuvchi-chekuvchi bo‘lma, birovlarining dilini og‘rituvchi dilozor bo‘lma – mening sendan tilagim shu!

Rafiq:

– Aytganingizdan sira chiqmayman, siz o‘ylagan-day odam bo‘lishga harakat qilaman, – deb oyisiga so‘z beribdi.

## **DO‘ST HOLIDAN BEXABARLIK**

*(hikoyat)*

Bir kishi do‘stining yoniga kelib, to‘rt yuz dirham qarz bo‘lib qolganini aytib, undan yordam so‘radi. Do‘sti unga darhol aytilgan miqdordagi pulni topib jo‘natdi-yu, uyga qaytib kiringach yig‘lab yubordi. Xotini unga:

– Bunchalar qiynalar ekansiz nega pul berdingiz? – dedi.

– Uning holini so‘ramay, uyimga yordam so‘rab kelishiga qadar majbur qilganim uchun yig‘layapman, – deb javob berdi u.

**Mavzuga oid maqollar:**

*Mehri borning sehri bor.*

*Odam quloqdan ozar,  
Quloqdan semirar.*

*Yaxshiga bersang oshingni,  
Yaxshilar silar boshingni.  
Yomonga bersang oshingni,  
Itga tashlar boshingni.*

## HUNARMANDLIK

**Hunarli inson jamiyatda o'z o'rniga ega bo'ladi. Hunarsiz inson esa mevasiz daraxtga o'xshaydi. Xalqimiz hunarni "zar", "tuganmas xazina", "oqar buloq" deya bejizga e'tirof etmagan. Bir hunar ortidan boshqa bir hunarning ham ergashib kelishiga sababchi bo'ladi. U tufayli qanchadan-qancha insonlar haloldan rizq topib, tirikchiligini o'tkazadi, atrof-dagilarning ehtiyojini qondirib, duosini oladi. Shunday ekan, e'zgulikka, tirishqoqlikka, bilimdonlik va mohirlikka undaydigan bu fazilatni qo'lga kiritaylik!..**

### HUNARLI YIGIT

*(O'zbek xalq ertagi)*

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, qadim zamonda bir shaharda bir chol bilan kampir bo'lgan ekan. Ularning Mamatboy degan bitta-yu bitta o'g'li bor ekan.

Kampirning ota meros bir hovlisi bo'lib, chol-kampir ana shu hovlini uch yuz tillaga sotishibdi va maslahatlashib o'g'lini savdo ishiga o'rgatmoqchi bo'lishibdi. Chol o'g'lini chaqirib:

– Bolam, biz endi qarib, kuch-quvvatdan qoldik. Sen mana bu yuz tillani olib, savdogarchilik qilgin, – debdi.

Bola yuz tillani beliga tugib, yo'rg'a eshakni minib, “hayyo-hay”, deb safarga jo'nabdi.

Yurib-yurib bir shaharga yetibdi. Qarasa, bozorga yaqin bir joyda odamlar to'planishib turgan emish, olamon yaqiniga borib bir odamdan: “Nima gap?” deb so'rasa, u:

– Bu yer ilm beradigan joy. Kimki yuz tilla to'lasa, bir yil ichida ilm o'rganib chiqadi, – debdi.

Bizning Mamatboy ham ilm o'rganishni havas qilib yurar ekan. Bu gapni eshitgach: “Savdo ishidan nima foyda, yoshlikda ilm o'rgangan afzal” deb, yuz tillani to'labdi. Havas bilan astoydil o'qiy boshlabdi. Oradan bir yil ham o'tibdi. Mamatboy zehni balandlik qilib, ustozidan ham o'zib ketibdi. Endi uyiga qaytmoqchi bo'libdi. Ammo hech nakirsasi qolmagan, hatto, eshagini ham sotib yuborgan ekan. Nima qilishini bilmay hayron bo'lib turganida, ustozning rahmi kelib unga bir eshak

beribdi. Bir yarim oy deganda Mamatboy uyiga kelibdi. Ko'pdan beri kutib o'tirgan ota-onasi o'g'lini ko'rib juda quvonibdi. Hol-ahvol so'ragandan keyin kampir:

– Bolam, yuking ortingdan kelyaptimi? – deb so'rabdi. Bola indamabdi. Bir oz fursat yotib, hordiq chiqargach ota-onasiga:

– Xafa bo'lmasangizlar bir gap aytaman, – debdi.

Ular:

– Mayli, ayt, bolam, – deyishibdi.

Shunda bola o'z boshidan kechirgan hamma hodisalarni aytib beribdi. Chol-kampir bir oz ranjibdi.

Oradan bir hafta o'tibdi. Ular o'zlaricha maslahatni bir joyga qo'yib, bolaga yana yuz tilla beribdilar. Ammo boshqa narsaga sarf qilmagin, deb tayinlab uni savdoga jo'natibdilar. Bola cho'l-biyobonlar, tog'-toshlar oshib, axiri bir shaharga yetibdi. Qarasa, bir joyda odamlar to'planishib turgan emish. Bola surishtiribdi. Ulardan biri: “Bu yer cholg'u o'rgatadigan joy, kimki yuz tilla to'lasa, bir yilda ajoyib sozanda bo'lib chiqadi”, debdi.

Bola o'ylab turib: “Ota-onam urishsa urishar, ilm o'rgandim, endi buni ham o'rganib qo'yay”, deb yuz tilla to'lab maktabga kiribdi. Oradan bir yil o'tibdi.

Bolaning zehni o'tkir ekan, sal fursatda ustozidan ham o'zib ketibdi.

Ustozi bolaning juda uquvli bo'lgani, ammo ketishga hech nimasi qolmaganidan tashvishlanib bir toy bilan yo'lga kerakli oziq-ovqat hozirlab, uni uyiga jo'natibdi. Bola uch hafta deganda uyiga yetib kelibdi. Bir yildan beri ko'z tutib, zoriqib o'tirgan ota-ona o'g'lini ko'rib juda sevinishibdi. Kampir bolasidan hol-ahvol so'rab bo'lib:

– Bolam, yuking ortingdan kelyaptimi? – debdi. Bola nafasini rostlab olgandan keyin, voqeani aytib beribdi. Buni eshitgan chol bilan kampir xafa bo'lishibdi, bolani qattiq koyishibdi.

O'n kundan keyin chol bilan kampir ikkisi maslahat qilishibdi. Otasi o'g'lini chaqirib:

– Bolam, bisotimizda atigi uch yuz tilla bor edi, ikki yuz tillani sarf qilib kelding, endi bor-yo'g'i yuz tillagina pulimiz qoldi, shuni ehtiyot qilib, har nar-saga sarf qilmasdan, arzon mollardan olib kel, jon bolam! – deb yana savdoga jo'natibdi.

Bola ota-onasi bilan xayrlashib, noma'lum shaharga jo'nab ketibdi. Yura-yura bir joyga yetibdi. Toyi hurkib ketib, odamlar to'planib turgan joyga borib to'xtabdi. Bola odamlardan: “Nega to'planib turibsizlar?” deb so'rasa, ulardan biri: “Bu yerda

shaxmat o'yini o'rgatiladi. Kimki yuz tilla to'lasa, shaxmat o'rganadi", debdi. Mamatboy o'ylab turib: "Yuz tilla berib ilm o'rgandim, yuz tilla berib cholg'uvchi bo'ldim, endi yana yuz tilladan qochib buni o'rganmay qolaymi? Kel, tavakkal, buni ham o'rganib olay", deb ahd qilibdi va qo'lidagi yuz tillani to'lab, shaxmat o'ynashga kirishibdi. Bir yilda shaxmat o'yinini juda yaxshi o'rganib, keyin yurtiga qaytibdi. Ko'p yo'l yurib, uyiga yetibdi. Otonasi bolasini sog'inib ko'z tutib o'tirgan ekan, u bilan ko'rishib bo'lib:

– Bolam, yuking qani, orqada kelyaptimi? – deb eshikka chiqib qarasa, yana hech nima yo'q emish. Yana hayron bo'lishibdi. Bola bu safar shaxmat o'yinini o'rganganini aytib beribdi.

Chol bilan kampir ilgarigidan ham battarroq xafa bo'lishibdi. Nochorlikdan Mamatboyning bir boyga xizmatkor qilib berishibdi. Mamatboy judayam serg'ayrat, chaqqon bola ekan, uch kun o'tmasdanoq, boyning xizmatkorlari orasida tanilib qolibdi. Boy ham uning chaqqon, ishbilarmonligiga qoyil qolibdi.

Kunlardan bir kuni boy uzoq bir shahardan bir necha ming yilqi va qo'ylarni olib kelayotgan ekan, dasht-biyobonlarda bir qancha ko'p yu-

rishgandan keyin yilqi-qo‘ylari cho‘llab qolibdi. Qidirib-qidirib bir quduq topishibdi. Quduq juda eski ekan. Boy “Kim tushadi?” deb so‘rasa, xizmatkorlari churq etmabdi. Axiri Mamatboy: “Bu ishni men bajaraman”, deb beliga arqon bog‘lab, quduqqa tusha boshlabdi. Quduq juda chuqur ekan, tushib ketaveribdi. Axiri oyog‘i quduq tagiga tegibdi. Qarasa, quduq tagi keng, hamma yer qorong‘i, zulmat, qup-quruq, suv degan narsa yo‘q emish. Belidan arqonni yechib, nariroqqa borib qarasa, bitta xum turganmish va undan hadeb tilla qaynab chiqayotgan emish. Bola olib tushgan chelagini darhol tillaga tō‘latib, yuqoriga uzatibdi. Bo‘shagan chelak qaytib tushibdi. Shunday qilib xumdagi tillani tamom qilibdi, keyin arqonga chirmashib yuqori chiqa boshlabdi. Shu zahoti boy: “Bolani hozir tortib olsam, u hoynahoy tillaning kamida yarmiga sherik bo‘ladi. Undan ko‘ra, bola shu quduqda o‘lib ketgani yaxshi”, deb arqonni shartta qirqib yuboribdi. Boy hamma tillani olib, yo‘lga ravona bo‘libdi. Endi gapni boladan eshiting: Mamatboy ko‘zini ochsa, o‘zini quduqda ko‘ribdi. “Attang, boy yaxshilikka yomonlik qildi. Ajalim shu yerda ekan-da”, deb juda xafa bo‘lib ichkariroqqa yuribdi. Atrofiga nazar sol-



sa, bir yoqda bir eshik ko‘rinibdi, eshikdan kirib qarasa, ichkarisi juda yaxshi bezatilgan bir uy emish. Bu uy bir devniki ekan, unda o‘sha dev yotgan ekan. Uyning shiftida bir qancha cholg‘u asboblari osig‘liq emish. Yigit devordan bir g‘ijjakni olib chala boshlabdi. Dev yetti yildan buyon kasal bo‘lib, hushsiz yotgan ekan, g‘ijjak tovushini eshitib, o‘ziga kelibdi. Yetti kun deganda tuzalib turibdi va:

– Ey bola, sen kimsan? Menga ko‘p yaxshilik qilding. Tila tilagingni! – debdi.

Bola qo‘rqib ketib, darhol devga salom beribdi. Dev alik olib, uning bu yerga qanday kelganini so‘rabdi. Bola devga boshidan kechirganlarini aytib beribdi. Bolaga devning rahmi kelib:

– Sen meni o‘limdan olib qolding, – debdi.

Bola oldin devning tillasini quduqdan chiqarib yuborganini va shu sababli gunohini kechirishini so‘rabdi. Dev uning gunohini kechiribdi. So‘ngra Mamatboy:

– Meni yorug‘ dunyoga olib chiqib qo‘ysang bas, – debdi.

Dev uni yelkasiga mindirib, bir zumda ochiq havoga chiqarib qo‘yibdi. Mamatboy dev bilan xayrlashib, yo‘lga ravona bo‘libdi. Mamatboy tez-tez

yurib boyga yetib olibdi va bilmas kishi bo‘lib, yana ilgari gidek boyning xizmatini qila-veribdi. Buni ko‘rgan boyning esi chiqib ketibdi. U ham qo‘rqqanidan noiloj o‘zini bilmaslikka solib yuraveribdi-yu, bolani yo‘q qilish pa-yiga tushibdi.

Boy xotiniga quyidagicha xat yozibdi: “Mendan sizlarga ko‘pdan-ko‘p salom. Yaqinda borib qolaman. Jon xotin, men borguncha shu xatni olib borgan bolani o‘ldirib yubor. Sababini borganimda aytaman”. Xatni taxlab, muhrini bosib: “Endi buni kim uyga yetkazadi?” desa, hech kim indamabdi, chunki boy oldinroq boshqa xizmatkorlari bilan til biriktirib qo‘ygan ekan. Xatni oxiri Mamatboy olib ketibdi. Yura-yura bir yerga yetganida o‘ylabdi: “Ey, men qancha ovora bo‘lib ilm o‘rgangan edim, buning duoyi salomini bir o‘qib ko‘rmaymanmi?” deb xatni ochib qarasa, gap haligiday. Xatni darrov yirtib tashlabdi-da, o‘rniga quyidagi xatni yozibdi: “Rafiqam G‘ilmonnisoga. Duoyi salomdan so‘ng andog‘ ma‘lum va ravshan bo‘lsinkim, men bu o‘lkada eson-omon yuribman. Nasibam bo‘lsa, yaqinda borib qolaman. Ushbu yuborgan xizmatkor bola Mamatboy juda epchil ekan, baraka topsin, men buyurgan eng muhim ishlarni yakka o‘zi muhayyo qildi.

Davlatimizning ortishiga sababchi bo'ldi. Mamatboyni yaxshilab kutib ol, darhol katta qizimizni shunga to'y qilib ber, toki men borganimda kuyov bo'lib kutib olsin”.

Mamatboy xatni o'xshatib yozibdi va xat oxiriga boy nomidan imzo chekibdi. Mamatboy bir haftada yetib kelib, xatni boyning xotinigga beribdi. Xotin xatni o'qib: “O'zlari aytibdilar, to'y qilmasa bo'lmas ekan”, deb ertasigayoq to'y-tomosha qilib, katta qizini Mamatboyga beribdi. Bir necha kun deganda, boy ham yetib kelibdi. Eshikdan uni qizi bilan kuyovi yaxshilab kutib olishibdi. Boyning joni hiqildog'iga kelibdi-yu, ammo sir boy bermabdi, o'zini zo'rg'a tutib yuribdi. Yigit ham bilmas kishi bo'lib, qaynotasining hurmatini bajo keltirib yuraveribdi. Oradan bir necha kun o'tgandan keyin boy xotini chaqirib:

– Sen nima ish qilib qo'yding? – deb uni koyibdi.

Xotini:

– O'zingiz aytibsiz-ku! – deb xatni ko'rsatgan ekan, boy:

– Bu men yozgan xat emas, obbo qurg'ur-ey, mendan ham usta ekan, – deb qoyil qolibdi. Lekin Mamatboyni yo'q qilishni kecha-yu kunduz o'ylab yuraveribdi.

Kunlarning birida yigit ota-onasini xotirlab: “Xotinim bilan birga uyga borib kelay”, deb boydan ijozat so‘rabdi. Yurib-yurib bir katta shaharga kelibdilar. Mamatboy o‘sha shahar podshosining saroyi yonidan o‘ta turib, darvozaga ko‘zi tushibdi, darvoza tepasiga osilgan bir necha odamni ko‘ribdi. Surishtirsa, podshoning bir go‘zal qizi bor ekan. U shaxmatga juda usta ekan. “Kimki o‘yinda meni yutib chiqsa, o‘shanga tegaman”, deb shart qo‘ygan ekan. Haligilar shaxmat o‘yinida yutqazgan kishilar-ning tanalari ekan. Mamatboy o‘ylab turib: “Ikki hunarim meni ikki marta o‘limdan olib qoldi, uchinchisi ham bekor ketmas. Kel, tavakkal, shu o‘yinni ham o‘ynab ko‘ray”, deb, shoh qizi yoniga boribdi. Qiz uni mensimagandek bo‘lib qabul qilibdi. O‘yin boshlanibdi. Qiz ham, yigit ham bir-biridan sira qolishmabdi. Uch kun deganda qiz yutqazibdi. Qiz bilan otasi Mamatboyning shaxmatga ustaligiga qoyil qolishibdi. Podsho yigitga qizini bermoqchi bo‘lgan ekan, yigit unamabdi. Shundan so‘ng podsho Mamatboyga ko‘p mol-dunyo in‘om qilib, saroydagi lavozimlardan biriga tayinlabdi. Mamatboy ota-onasini shaharga oldirib kelib, kambag‘al, beva-bechora, yetim-yesirlarga muruvvat

qilib yashayveribdi. Mamatboyning qaynotasi kunlardan bir kun Mamatboyga arzga kelibdi. Lekin kuyovini tanimabdi. Kuyov qaynotasining arziini obdon eshitib bo'lib, keyin boyning butun qilgan ishlarini o'ziga aytib beribdi. Boy juda yomon ahvolga tushib, yigitning oyog'iga yiqilib, o'z qilmishlariga tavba qilibdi. Shunday qilib Mamatboy murod-maqsadiga yetibdi.

***Mavzuga oid maqollar:***

*Hunar – oqar buloq,  
Ilm – yonar chiroq.*

*Hunar bo'lsa qo'lingda,  
Non topilar yo'lingda.*



## OMONATDORLIK

***Omonatga xiyonat qilish adolatdan emas. Bizga ishonib, omonat uchun topshirilgan narsani ko'z qarachig'imizdek asrashimiz lozim. Omonatdan o'z maqsadlarimiz yo'lida foydalanish kechirilmas xatti-harakatdir. Inson olgan omonatini qanday bo'lsa, shundayligicha qaytarishi lozim.***

### O'G'RINING OMONATI

*(rivoyat)*

Bir zamonlar o'rtahol bir savdogar bo'lgan ekan. Bir kun erta saharda hammomga borish uchun yo'lga tushibdi. Yo'lda ketayotib do'stini ko'rib qolibdi. Do'stini ham o'zi bilan birga hammomga borishini so'rabdi. Do'sti bo'lsa: "Uzr, sen bilan birga hammomga borolmayman, juda zarur ishim bor,

ammo sen bilan hamomgacha hamroh bo'lishim mumkin", debdi.

Ular birgalikda yo'lga tushibdilar. Tongda uyg'on-ganliklari uchunmi ikkisining ham ko'zida uyqu bor ekan. Suhbatlashmasdan, jimgina yo'llarida davom etibdi ular. Savdogar oldinda, do'sti esa ort-da borar edi. Hammomga yaqinlashgach do'sti o'z yoliga ketibdi. Savdogar esa do'stining ketganini payqamabdi ham. Shu payt nogahon bir firib-gar-o'g'ri savdogarning ortidan tushibdi. Savdogar oldinda, o'g'ri esa orqada boraveribdi. Tasodifni qarangki, savdogarning yonida yuz tillosi bor ekan. Shuning uchun u "hammomda o'g'irlatib qo'yishim mumkin" degan xayolga borib, yonidan oltinlarini chiqarib, o'g'riga uzatibdi-da: "Do'stim, hammom-dan chiqqunimga qadar bu tillolar senga omonat", debdi.

O'g'ri hayron bo'libdi, ammo indamabdi. Savdogar hammomga kirib ketibdi, o'g'ri bo'lsa tillolarni olib to savdogar hammomdan chiqqunicha uni kutib o'tiribdi. Ancha vaqt o'tib savdogar hammomdan chiqibdi. Qarasa, yaqin atrofda do'sti ko'rinmaydi. U hayron bo'lib, do'stining uyiga jo'nabdi. Shunda savdogarning ortidan:

– Taqsirim, to'xtang, – degan ovoz eshilibdi.

Savdogar ortiga o'g'irilib qarashi bilan o'g'ri:

– Menga tashlab ketgan omonatingizni olmay-sizmi? Sizning omonatingizni deb bugungi tirik-chiligimdan qolib ketdim, – debdi u.

– Qanday omonat haqida gapiryapsan?

– Qanday omonat bo'lardi, menga tashlab ket-ganingiz yuz oltin tillo-da.

Savdogar hayron bo'lgan:

– Yanglishib – do'stim deb o'ylab, omonatimni senga topshirganmidim?

– Xuddi shunday.

– Kasbi-koring nima?

– Men bir o'g'riman, kasbim insonlarni aldab, mol-dunyasini qo'lga kiritish.

– Sen o'g'rimisan? Men bilan hazillashma... Agar o'g'ri bo'lsang, bu tillolarni olib qochgan bo'larding, ustiga-ustak do'stim gumon qilib, bisotimni senga topshiribman. Shunday ekan, nega oltinlarni olib ketmading, nega meni kutib o'tiribsang?

– Agar kissavurligimni qilganimda siz mendan bir tiyin ham ololmas edingiz. Ammo siz menga til-lolarni omonatga qoldirdingiz-ku!? Omonatga xi-yonat qilib bo'lmaydi. Omonatga xiyonat mardning ishi emas. To'g'ri, men bir o'g'riman, biroq kimni, qanday aldashni juda yaxshi bilaman.



Savdogar uning gaplarini eshitib:

– Sening ishing meni nihoyatda ajablantirdi. Inson qalbi bir paytning oʻzida toʻgʻrilik va egrilikka moyil boʻlmaydi. Shuningdek, omonatdorlik va xiyonatkorlik ham aslo bir joyda jamlanmaydi. Oʻgʻrilik ham xiyonat, ammo sen bu oltinlarni halol mehnating, vafodorliging va sadoqating tufayli qoʻlga kiritding. Bu tillolar endi seniki!.. Men buni senga minnatdorlik, mamnunlik va rozilik holatida topshiraman. Biroq sen bundan soʻng halol rizqingning ortidan haromni ergashtirma!..

Olov temirni yumshatgani singari savdogarning nasihati oʻgʻrining qalbini mumdek eritdi. Qoʻlga kiritgan oltinlarini xotirjam holatda yaxshiliklarga sarfladi. Buning totini tuygan oʻgʻri kasbi kori-yu niyatini oʻgʻrilikdan toʻgʻrilikka oʻzgartirdi. Shundan soʻng uning roʻzgʻoriga baraka inib, boshi shodlikdan, koʻngli xotirjamlikdan chiqmadi.

### ***Mavzuga oid maqol:***

***Omonat – omonatga qilma xiyonat.***

## MEHNATSEVARLIK

**Mehnat inson hayotini bezaydi. Biz ishlatayotgan buyumlar, kiyimlar, iste'mol qilayotgan taomlar – barchasi kimningdir mehnati tufayli yuzaga keladi.**

**Insonning qo'li – gul. U istasa toshdan gul undirishi, oddiy loydan bejirim buyumlar yasashi mumkin.**

**Xususan, bu haqda Sharq-u G'arbda o'zining hikmatli fikrlarga boy g'azallari bilan tanilgan Sa'diy Sheroziy shunday yozadi:**

**Chumoli yoz bo'yi yig'ar yemak-don,  
Toki qishda uyi bo'lsin farovon.**

### KIMNING QO'LI CHIROYLI

*(Hind xalq ertagi)*

Jamna daryosi yoqasida uch zodagon ayol suvni shaloplatib o'ynab o'tirishgan ekan. Bir vaqt ular bir-biriga qo'llarini ko'rsatib, maqtana boshlabdi.

Biri: “Mening qo‘lim nozik, barmoqlarim uzunroq” desa, boshqa biri bo‘lsa: “Mening qo‘lim oppoq, terisiyam silliq”, deya tortisha boshlashibdi:

– Mening qo‘lim eng chiroyli qo‘l, – debdi birinchisi.

– Meniki ham siznikidan qolishmaydi! – dermish ikkinchisi.

– Mening qo‘lim ikkalangiznikidan ham chiroyliroq! – debdi uchinchisi.

Shu payt ayollarning oldiga och, kiyimlari yupun, o‘zi nogiron bir kampir kelibdi va ulardan yegulik biror narsa berishlarini so‘rabdi. Zodagon ayollar bo‘lsa sho‘rlik kampirga hech narsa bermay, faqat:

– Bizga shuni ayt-chi, hoy kampir, qaysi birimizning qo‘limiz chiroyli? – deb so‘rashibdi.

– Biror narsa tamaddi qilib olay, keyin aytaman, – debdi tamshanib kampir va yo‘lida davom etibdi.

Kampir biroz yuribdi-da, daryo bo‘yida o‘tirgan bir kambag‘al dehqon ayolga duch kelibdi. Ayol dalada ishlayverganidan qo‘llari shunaqangi qorayib ketgan ekanki, terisi xuddi ko‘mirga o‘xsharmish. Kampir asta uning oldiga borib sadaqa so‘rabdi:

– Ochdan o‘lay deyaqman! Biron yegulik narsang bo‘lsa ber, qornimni to‘yg‘azay.

– Xo‘p bo‘ladi, onajon! Menda ozgina yegulik bor, yarmini siz yeya qoling, – debdi dehqon ayol.

Kampir tamaddi qilibdi, suv ichibdi va dehqon ayolni astoydil duo qilibdi. Keyin uning qo‘lidan tutib boyagi zodagon ayollar oldiga olib kelibdi-da, ularga qarab shunday debdi:

– Mana, endi kimning qo‘li chiroyli ekanligini aytaman. Ochiqqan, nogiron bir kampirning ehtiyojini qondirgan mana bu mehnatkash ayolning qop-qora qo‘llari sizning oppoq, nozik qo‘llaringizdan ming chandon chiroyliroqdir!

Shunday deya, kampir g‘oyib bo‘libdi. Uchala zodagon ayol bo‘lsa, uyalishganidan yer yorilmabdi-yu, yerga kirmabdi. Kaltabin ayol yer chizgan-cha qolaverishibdi.

## OTA VASIYATI

(rivoyat)

Qadim zamonda bir o'ziga to'q inson o'tgan ekan. Kunlarning birida u qattiq betob bo'lib qolib, yoniga ikki o'g'lini chaqiribdi va meroslarini ajratib, "har doim totli narsalarni yenglar va shirin uxlanglar", degan so'zlarni aytib joni uzilibdi.

Katta o'g'il otasining nasihatlariga amal qilib, halol mehnat orqasidan kun kechiribdi va buning mevasini ko'ra boshlabdi.

Kichik o'g'il esa har doim eng shirin va eng totli taomlarni yeb, kunini uxlash bilan o'tkazibdi. Oqibatda qashshoqlashib qolibdi.

Bir kuni u akasining qanday yashayotganini eshitib qolibdi va unikiga mehmonga o'tlanibdi.

Ertasiga ikkovlon dalaga ishlagani chiqibdi, tushgacha ishlab, qorinlari ochqagach, birga tushlik qilishibdi. Ukasi ovqatni shunaqangi ishtaha bilan yebdiki, oldin yeganlari sira bunaqa emas ekan. Keyin u akasidan qanday qilib bu kunlarga yetishganini va o'zining nega qashshoqlashib qolgani sababini so'ragan ekan, akasi shunday javob beribdi:



– Sen padari buzrukvorimizning gaplarini noto‘g‘ri tushungansan chog‘i, otamiz “totli narsalarni yenglar va shirin uxlanglar”, deganda mehnat qilib yashashni nazarda tutgan.

Nihoyat, donishmand otaning gapini kichik o‘g‘il tushunib yetib, xuddi akasidek unga amal qila boshlabdi.

***Mavzuga oid maqollar:***

*Mehnatli non – shakar,  
Mehnatsiz non – zahar.*

*Qush qanoti bilan tirik,  
Odam mehnati bilan.*

## SO'ZIDA QAT'IYLIK

**Lafz – so'zida qat'iylik, bergan va'dasining us-tidan chiqishdir. Va'daning katta-kichigi bo'lmaydi. Ota-bobolarimiz bejiz: “Insonning yagona pok joyi – lafzi”, deb aytmaganlar.**

**Inson behisob boylikka ega bo'lsa-yu, so'zida qat'iy turmasa, yuqori pog'onalarni egallasa-yu, bergan va'dasini unutsa, kattadir, kichikdir amaldor bo'lsa-yu, qat'iylik yetishmasa, ular o'zlariga har qancha baho berishmasin, el bunday kimsalarga nisbatan bepisand bo'ladilar.**

## NOVVOTGA AYLANGAN “JAVOHIR”

(rivoyat)

Andijonda temuriyzoda Umarshayx Mirzo hukmdorlik qilgan davrda tillo buyumlar ustasi, o'z hunari bilan butun Sharqqa nomi ketgan Mu-



hammad Abdulmuso ismli bir soʻzli, halol-pok va oʻta diyonatli zargar boʻlgan ekan. Podshoh saroyining jami ahli ayollari suyib taqadigan eng noyob tillo taqinchoqlar shu zargar tomonidan tayyorlanar ekan.

Kunlardan bir kun oqshom payti uning huzuriga bir musofir odam kelib, oʻzini qobullik savdogar Sayyid ibn Abbos, deb tanishtiribdi. Zargarining vaqti ziq boʻlsa ham musofirni tinglabdi. Suhbat chogʻida savdogar tijorat ishlari yurishmay, mollari kasod boʻlganligini, shu sabab otasidan qolgan yagona meros – oʻn misqolli javohirni sotishga jazm qilganligini alam bilan aytib beribdi. Gapining orasida: “Odamlar bunday qimmatbaho toshni faqat shu kishi baholay oladi”, deb sizni aytishdi, debdi.

Zargar sukut bilan savdogarning hamma soʻzlarini tinglab, soʻngra:

– Qani oʻsha javohir? Yoningizda boʻlsa koʻrsating-chi?! – debdi.

Savdogar shoshib, qoʻynidan barqut xaltacha chiqarib, undan avaylab javohirni olib beribdi.

Usta yaraqlab turgan javohirni qoʻliga olib, aylantirib koʻrarkan:



– Aziz mehmon! Toshingizning misqoli to‘g‘ri bo‘lsa, bu “mol”ni o‘n ming tilloga olsa ham bo‘ladi, sotsa ham bo‘ladi, – deyishi bilanoq, savdogar shoshib: “Sotdim sizga”, deb yuboribdi. Usta ham bir so‘z bilan: “Oldim”, deb qo‘yibdi. Shundan so‘ng, Muhammad Abdulmuso xizmatkoriga ichkaridan kelishilgan miqdordagi tillolarni olib chiqib savdogarga berishni buyuribdi. Xizmatkor lagandagi oltinlarni unga sanab o‘tkazayotganda, zargarga taqsimchadagi javohir shu‘lasi, bilinar-bilinmas o‘zgarganday tuyulibdi. Uni yana qo‘liga olib, sochiq bilan yaxshilab artib, og‘ziga solibdi. Xizmatkor tillolarni savdogarga sanab beribdi hamki, javohir zargarning og‘zida eriy boshlabdi!.. Yo, tavba! Bu qandayin hiylagarlikki, javohir degani o‘ta ustamonlik bilan ishlov berilgan bir bo‘lak novvot ekan, xolos! Usta og‘zidagi javohirni sira ham sezdirmasdan sochiqqa o‘rab olib, taqsimchaga qo‘yibdi-da, ko‘zlari jovdirab, vahimaga tushib qolgan “savdogar”ga ochiq chehra bilan qo‘l uzatarkan:

– Qoyil! Umrimda birinchi marta ko‘rishim, bundayin ustalik bilan yasalgan “duru javohir”ni!.. Xuddi o‘zi!!! – deb miyig‘ida kulib qo‘yibdi.

Ketish uchun izn so‘rab, rangi bo‘zday oqarib ketgan “savdogar”ga qarab:

– Molingiz uchun rahmat, birodar! Mabodo, shahrimizda yaqin tanishlaringiz bo‘lmasa, hujralar serob, birida bemalol tunab qolib, ertalab yorug‘da yo‘lga chiqishingizni maslahat bergan bo‘lardim, – deb xayrlashibdi.

“Savdogar” bu taklifga ko‘nmay, jo‘nab ketish uchun shoshib ko‘chaga chiqib qarasa, qorong‘i tushib qolgan ekan. Shuncha boylik bilan tunda yurishni xavfli bilib, taklifni qabul qilishga majbur bo‘libdi. Xizmatkor mehmonga iltifotlar ko‘rsatib, lazzatli taom va shirin mevalar bilan siylab, eng shinam hujralarning biriga joy hozirlab beribdi. “Xotirjam, yaxshi dam oling”, deb tilak bildirib, lozim topsa, eshikning zanjirini ichkaridan ilib qo‘yishni ham eslatib qo‘yibdi. Xizmatkor tunda hujrada chiroq o‘chmaganidan hijolat bo‘lib, pinhona ikki marotaba xabar ham olibdi. Xullas, tong otib xizmatkor mehmondan xabar olgani kirsa, toqati toq bo‘lib o‘tirgan “savdogar”:

– Taqsir, endi bor sirimni sizga yetkazib qo‘ymasam, tars yorilib, o‘lib qolaman. Eshiting: avvalo, men qobullik savdogar Sayyid ibn Abbos emas-

man. Meni taniganlar Kano deb chaqirishadi. Gulday hunarimni tashlab, ko'p yillardan beri ming hadik va sarosimada firibgarlik bilan shug'ullanib kelaman. Shu yillar ichida juda ko'p odamlarni chuv tushirdim. Hammalari orqamdan dod-faryod solishib, meni o'ldirish payiga tushardilar... Biroq sizning xo'jayiningizga o'xshagan bir so'zli, mard, lafzi halol kishiga birinchi marta ro'baro' kelishim. Tuni bilan mijja qoqmay tong ottirdim va shunday qarorga keldim: bugundan boshlab firibgarlikni tashlayman, halollik va rostgo'ylikda, xotirjamlikda yana o'z hunarim bilan tirikchilik o'tkazishga qasam ichdim, – degan cha qo'lidagi oltinlar solingan xaltachani xizmatkorga tutqazib, xonadonni tark etibdi.

Uning gaplariga yaxshi tushunmagan xizmatkor omonatni xo'jayiniga topshirarkan, musofir "savdogar"ning hamma gaplarini birma-bir so'zlab beribdi. Usta bir nuqtaga tikilgan cha buni eshitarkan, miyig'ida kulib, halollik naqadar ulug' lazzat ekaniga yana bir bor ishonch hosil qilibdi.

**Mavzuga oid maqollar:**

Yolg'on gapirib yashagandan,  
Rost gapirib o'lgan yaxshi.

Til bilan tugilgan tugun  
Tish bilan yechilmas.

'a'da – quruq, bajarsa – ulug'.

## AHILLIK


**Xalqimizda: “Baraka – ko‘pchilikda” degan naql bor. Biror tadbirni birgalikda, jamoa bo‘lib, ahilinoqlikda bajarilsa, ana shu ishning unumi tez, hosili mo‘l, daromadi qutli keladi.**

**Oltavlon ola bo‘lsa,  
Og‘zidagin oldirar.  
To‘rtavlon to‘la bo‘lsa,  
Bo‘lmaganni bo‘ldirar.**

### “AYRILGANNI AYIQ YER”

*(Hind xalq ertagi)*

Bundan bir necha zamonlar ilgari qalin o‘rmon yaqinida sigirlar to‘dasi bo‘larkan. Ular doimo bir to‘p bo‘lib, bir-birlaridan ajralmay o‘tlab yurishar-kan.





O'rmonda makkor bir yo'lbars yasharkan. U sigir go'shtini judayam yoqtirar ekan-u, biroq sigirlar to'dasiga yaqinlasholmaskan. Sababi, sigirlar bir-birlari bilan juda ahil bo'lib, hamjihatlikda dushmandan himoyalanişar ekan.

Yo'lbars o'ylab-o'ylab, sigirlar orasiga bo'g'z-u adovat urug'ini sepishga qaror qilibdi. Bir kuni u bir sigirning yoniga boribdi-da:

– Hoy, o'tkir shox, bilasanmi, anovi shoxi qayrilgan, biqini ichiga kirgan bor-ku, o'sha seni suzishga hozirlik ko'ryapti, – debdi.

Keyin boshqa sigiring oldiga borib, uning qu-log'iga:

– Hoy, uzundum! Sening hech nimadan xabaring yo'q, shekilli? Hushyor bo'l, anovi tik shoxli, yog'i sirtiga tepchigan govmish bor-ku, o'sha seni shoxiga ilmoqchi, – debdi.

Sigirlar makkor yo'lbarsning gapiga laqqa ishonishibdi. Ular bir-birlaridan hadiksiraydigan bo'lib qolishibdi va ko'p o'tmay oralari buzilib, ularning ilgarigi inoqliklaridan asar ham qolmabdi, hammasi har joyda suv ichib, har joyda o'tlaydigan bo'libdi.

Yo'lbars sigirlarni bir-birlari bilan urishtirib, maqsadiga erishganidan so'ng ularni birin-ke-

tin tutib yeyaveribdi: avval qayrilgan shoxni, keyin uzundumni, so'ng yog'i sirtiga tepchiqanni va hokazo. Xullas, tez orada butun sigirlar podasini yeb tugatibdi.

O'shandan beri: «Ayrilganni ayiq yer, bo'linganni bo'ri yer», degan hikmat el og'zidan tushmas ekan.

## AHILLIK – ULUG' BAXT

(Qirg'iz xalq ertagi)

Qadimda donishmand bir chol o'tgan ekan. Uning yetti o'g'li bor ekan. Lekin ular otala-rining so'ziga kirmas, har qaysisi o'zicha ish tutar ekan. Kattalari kichiklarini do'pposlab, kichiklari kattalariga qarshi bo'lib yurar ekan. Odamlar:

– Aqlli cholning o'g'illari xo'p ahmoq bo'lib o'syapti-da, – deyisharkan. O'gillarni yolg'iz uchratganda ularga tanbeh berisharkan.

Kunlardan bir kun chol o'rmonga boribdi-da, yo'g'onligi bosh barmoqday keladigan novdalardan yettitasini qirqib kelibdi. So'ng o'g'illarini chaqirib:

– Bolajonlarim, sizlarning kuchingizni sinab ko'rmoqchiman. Mana shu yettita novdani bir dashta qilib sindiringlar-chi, – debdi.

O'g'illari navbat bilan urinib ko'rishibdi, lekin uddasidan chiqisha olmabdi. So'ngra otasi o'g'illariga bittadan novda beribdi, o'g'illar ularni bir zumda sindirishibdi. Shundan keyin ota o'g'illariga:

– Mana, ko'rdingizmi, bitta novdani tez sindirdingiz, dastalanganiga esa kuchingiz yetmadi. Agar birlashib ahil yashasangiz, hech qanday dushman sizlarni yenga olmaydi, – debdi.

Oradan bir oz fursat o'tib chol dunyodan ko'z yumibdi. O'g'illari esa inoq yashay boshlashibdi. Kichiklari kattalarining so'ziga quloq soladigan, hammalari ishlab, bir-birlariga ko'maklashadigan bo'lishibdi.

Shundan keyin xalq “Ahillik – ulug' baxt” degan naqlni tez-tez takrorlaydigan bo'lishibdi.

### ***Mavzuga oid maqollar:***

*Birikkan kuch – kich,  
Birikmagan kuch – puch.*

## HALOLLIK

**Halollik odamiylikning eng zaruriy mezonlaridan. Barcha ezguliklarning, xayrli ishlarning boshi halollikdir. Harom luqma pokiza, andishali va or-nomusli insonga hech qachon singmagan. Shu tufayli bobolarimiz va momolarimiz o'zganing haqidan hazar qilishgan. Hattoki bu haqda "birovning haqi qonni buzadi" degan naql ham bor.**

**Dunyoni go'zallikdan ham oldin halollik qutqarsa ajab emas. Ibrat ko'zi bilan boqsangiz, halol insonning dili, yo'li to'g'ri, darajasi ulug' bo'ladi. Halol luqma tomog'ingizga tiqilmaydi, jig'ildonni qaynatmaydi, uyqungizni qochirmaydi.**

## IKKI DO‘ST VA BIR XUMCHA OLTIN

*(O‘zbek xalq ertagi)*

O‘tgan zamonda bir dehqon bo‘lgan ekan. Uning kambag‘al do‘sti bor ekan. Kunlardan bir kuni u dehqondan bir tanob yerini sotishni iltimos qilibdi. Dehqon yerining bir chekkasini do‘stiga sotibdi.

Yerni olgan odam qo‘sh ho‘kiz solib yer haydayotganida, omochning tishi qattiq bir nimaga urilgandek bo‘libdi. Dehqon parvo qilmay yer haydayveribdi. Qaytib o‘sha yerga kelganida omochning tishi yana haligi narsaga tegib-di. Kambag‘al dehqon: “Ilgari bu yerda daraxt bo‘lgan-u, o‘rnida uning to‘nkasi qolib ketgan, shekilli”, deb o‘ylabdi.

U ketmon olib kelib, omoch tishiga qadalgan narsani kovlay boshlabdi. Nihoyat, u yerdan xumcha chiqibdi. Uni ochib qarasa, ichi to‘la tilla emish.

Dehqon yerning qolgan qismini ham haydab, urug‘ sepibdi. So‘ng ho‘kizlarni egasiga topshiribdi. Xumchadagi tillani ko‘tarib, to‘g‘ri yer sotgan dehqon do‘stining uyiga boribdi. U o‘rtog‘iga:

– Sizdan olgan yerimni haydayotgan edim, mana shu xumchani topib oldim, ichidan tilla chiqdi. Uni o‘zingizga olib keldim, – debdi.



Dehqon kambag'alga:

– Men sizga yerni sotganman. Demak, u yerda nimaiki bo'lsa, sizniki bo'ladi. Men yer tagida nima borligini bilmaganman. Sizga Yaratganning o'zi beribdi. Bola-chaqangiz bilan maza qilib yashang, – deb xumchani olmabdi.

Kambag'al dehqon esa: “Bu boshqa birovning rizqi. Uni olsam, o'g'ri, jinoyatchi bo'lib qolaman”, deb o'ylab, xumchani yana dehqonga uzatibdi. Ikkalasi hech kelisha olmabdi.

Nihoyat, bir donishmandning oldiga boradigan, undan so'rab, bu ishni hal qiladigan bo'lishibdi...

Donishmand: “Xumchadagi oltinlarni qishloqdagi yetim-yesir va beva-bechoralarga bo'lib berib, ularning duolarini olinglar. Ular sizlar kabi halol, pok, sodiq insonlarning tobora ko'payishini Allohdan tilab yolvorsinlar”, deb maslahat beribdi.

Bunga dehqon ham, uning do'sti ham rozi bo'libdi.

Shunday qilib, ular tillani qishloqdagi beva-bechoralarga, kambag'al, yetim-yesirlarga tarqatishibdi.

Ikki do'st o'z mehnatlari bilan halol kun ko'rib, murod-u maqsadlariga yetishibdi.

## SUTGA QO‘SHILGAN SUVNING SELGA AYLANISHI

(rivoyat)

O‘tgan zamonda bir cho‘pon bo‘lgan ekan. Cho‘pon mehnatsevar, halol, o‘z ishiga sodiq, yaxshi xulq-atvorli ekan. Badavlat insonning qo‘ylarini boqarkan. Kech tushganda qo‘ylarni sog‘ib, sutini xo‘jayiniga olib borarkan. Biroq cho‘ponni bir narsa tashvishga solarkan. Qo‘ylarning egasi sog‘ilgan sutning teng yarim miqdorida suv qo‘shib cho‘ponga uni sotishni buyurar ekan. Lekin vijdoni qiynalgan cho‘pon, bunday qilmang, aldov bilan uzoqqa bormaysiz. Sutga suv qo‘shib sotmaylik, buning oxiri voy bo‘ladi, der ekan. Xo‘jayini bo‘lsa uning gaplarini qulog‘iga olmas, hattoki jahli chiqib, “sen o‘z ishingni bil, bunday ishlarga aqling yetmaydi”, deb do‘q urar ekan.

Chorasiz qolgan cho‘pon ilojisizlikdan suv qo‘shilgan sutralarni sotar, lekin har gal ko‘ngli xira tortib, azoblanar ekan. Shu bois takror-takror xo‘jayinini bu ishdan qaytarishga urinarkan.

Yoz kunlarining birida cho‘pon qo‘ylarni soy bo‘yidagi o‘tloqqa olib boribdi. Qo‘ylar maza qilib



o'tlagach, dam olish uchun daraxt tagiga yotibdilar. Cho'pon esa qo'ylarni ko'ra oladigan darajada bir oz tepalikka joylashibdi. Shu payt kutilmaganda havo aynib, osmon qop-qora bulutlar bilan qoplanibdi-da, kuchli shamol ko'tarilib, shovqin eshitilbdi. Cho'pon joyidan turib soy tomonga qarasa, kuchli sel toshqini kelib, hamma qo'ylarni oqizib ketayotgan ekan. Ulardan hech biri omon qolmabdi. Chorasiz qolgan cho'pon xo'jayinining oldiga quruq qo'l bilan qaytibdi. Sodir bo'lgan voqeadan bexabar qo'y egasi cho'pondan: "Sut qani, nega olib kelmading?" deb so'rabdi. Cho'pon esa xomush tortib: "Qo'ylar oqib ketdi, suvga g'arq bo'ldi. Sutga suv qo'shmang, oqibati yomon bo'ladi, deb sizni ogohlantirgan edim, quloq solmadingiz. Mana, oxir-oqibat sutga qo'shilgan suvlar yig'ilib sel bo'ldi-da, qo'ylarni oqizib ketdi", debdi.

Shunday qilib qo'ylarning egasi ochko'zligi, halol-haromga e'tiborsizligi tufayli barcha boyligidan ayrilib, umrining so'ngigacha nochor ahvolda kun kechiribdi.

**Mavzuga oid maqollar:**

*Xalq molini yegan halqumidan ilinar.*

*Halol pishib chiqar,  
Harom teshib chiqar.*

## SHUKRONALIK


*Hech bir narsa behuda yaratilmagan. Shunday ekan, berilgan ne'matga shukr qilish insonning to'g'ri yo'lda mustahkam ekanligini ko'rsatadi. Shukr qiluvchi inson manmanlik, isrof kabi salbiy holatlardan xoli bo'ladi. Natijada, o'ziga berilgan ne'matlardan foydalanib, yaxshi amallarni ko'paytiradi.*

## KIYIK VA TOSHBAQA

*(Turk xalq ertagi)*

Qadim zamonlarda bir o'rmonda kiyik bolasi bilan toshbaqa bolasi do'st bo'lishgan ekan. Biroq ular o'zlaridagi ba'zi a'zoldan o'kinar ekan. Kiyik oyoqlaridan, toshbaqa bo'lsa kosasidan noligani-noligan ekan.

– Shu ozg'in oyoqlarim bolmaganida o'rmondagi eng chiroyli jonivor bo'lardim, – der ekan kiyik.



– Men esa inimni hamisha o‘zim bilan olib yurishga majburman, – hasratini to‘kib solibdi toshbaqa.

Ular dardlariga chora topilishini istab, donishmand quyonning qabuliga borishibdi.

– Iltimos, meni kosamdan xalos eting. Uni doim ustimda tashib yurishdan charchadim, – deya yolvoribdi toshbaqa.

Donishmand quyon uni e‘tibor bilan tinglagach, shunday debdi:

– Ustingdagi kosangdan xalos qilsam keyin afsuslanmaysanmi?

– Bundan sira afsuslanmayman, – debdi toshbaqa qat‘iy.

Donishmand quyon o‘rmondagi giyohlardan bir dori tayyorlabdi-da, toshbaqaning ustiga surtibdi. Dori toshbaqaning ustida bir kecha-yu kunduz turibdi. Ertasiga toshbaqa ustidagi kosasidan xalos bo‘libdi.

– Sizga katta rahmat, – debdi toshbaqa quvongancha. – Bu yaxshiligingiz evaziga nima desangiz tayyorman.

– Sendan hech narsa so‘ramayman. Faqat tashlab yubormoqchi bo‘lgan kosangni menga qoldirib ketsang bo‘lgani, – debdi donishmand quyon.

Ikki do'st juda mamnun holatda quyoning uyidan uzoqlashibdilar.

Toshbaqa endi yangicha hayot kechirishini his qilib, eng avval o'ziga boshpana – uy quribdi. Endi u chaqqon harakat qiladigan, uzoq-uzoqlarga oz fursatda yetib oladigan bo'libdi. Ana shunday sayrlarining birida to'satdan havo aynib, yomg'ir sharros-lab yog'a boshlabdi. Toshbaqa juda qiyin ahvolda qolibdi:

– Eh mening aqlsiz boshim, nimalar qilib qo'ydim o'zi? Hozir ustimda kosam bo'lganida yomg'ir-u do'ldan aziyat chekmasdim...

Shu payt butalar orasida berkinib yotgan bo'ri toshbaqani nochor holatda uchratganidan o'zida yo'q quvonib ketibdi. Chunki har gal unga ishtaha bilan yaqinlashganda kosasiga berkinib olardida. Bo'ri vajohat bilan tosh-baqaga tashlangan edi hamki, nimadir unga zarb bilan urilibdi. Bo'ri chaqqon bu harakatdan o'zini o'nglab olgunga qadar toshbaqa qo'qqisidan paydo bo'lgan do'sti – kiyikning ustiga mingashib olibdi. Kiyik zudlik bilan qocha boshlabdi. Yovuz bo'ri ancha joygacha ularning ortidan quvib kelibdi, biroq kiyikning chaqqon oyoqlari tutqich bermay, ularni o'lim changalidan asrab qolibdi.

– Sening oyoqlaring dunyodagi eng chiroyli oyoqlar! Shunday ekan, sen aslo ulardan ranjima!.. Hozir ular bo‘lmaganda ikkimiz ham bo‘riga yem bo‘lardik. Mening kosam eng ishonchli hi-moyachim ekan. Men bo‘lsa, uni har doim o‘zim bilan olib yurishdan malollanibman. Aslida, uning menga sira ham og‘irligi yo‘q ekan, – debdi toshbaqa ma’yus tortib.

Ular birgalikda yana donishmand quyoningning oldiga borishibdi.

– Men katta xato qilibman, – debdi toshbaqa boshini quyi egib. – Qilgan ishimdan pushaymonman. Kosam men uchun eng yaxshi in ekan.

– Qilgan ishingdan afsuslanib, yana qabulimga kelishingni sezgandim, shu bois kosangni tashlab yubormadim, – debdi donishmand quyon qat’iyat bilan. – Bizga ortiqcha yukdek ko‘ringan ba’zi narsalarning qadrini uni yo‘qotgachgina anglab yetamiz.

Quyon yana bir malham tayyorlab, tosh-baqani ustiga surtibdi-da, kosasini kiydiribdi. Bir ozdan so‘ng kosasi yana avvalgi holidek joyiga o‘rnashib qolibdi. Bungan nihoyatda sevingan toshbaqa iniga kirib-chiqib, kiyik bilan rosa bekinmachoq o‘ynabdi.

Shundan soʻng toshbaqa sira ham kosasidan ranjmaydigan, kiyik aslo oyoqlaridan shikoyat qilmaydigan boʻlishibdi. Bunga javoban toshbaqaning kosasi yanada mustahkamlanib, kiyikning tuyoqlari tobora chaqqonlashibdi.

***Mavzuga oid maqol:***

*Ari chaqdi deb arazlama.*

*Shamolimni soʻkma,  
Tuzimni yerga toʻkma.*



## KITOBXONLIK

***“Kitob – mashg‘ullik paytingda o‘zi so‘z boshlamaydigan, ish vaqtingda chaqirmaydigan suhbatdoshdir. Unga chiroyli ko‘rinishing shart emas. Kitob – senga laganbardorlik qilmaydigan o‘rtoq, seni aldamaydigan do‘st, malol kelmaydigan yo‘ldosh va tahqirlamaydigan nasihatgo‘ydir.”***

*Ahmad ibn Ismoil*

***“Kitobdan yaxshi do‘st yo‘q jahonda,  
G‘amxo‘ring bo‘lgan u hamma zamonda.  
U bilan qol tanho, hech bermas ozor,  
Joningga yuz rohat beradi takror.”***

*Abdurahmon Jomiy*

## DONO DO‘ST

(badiha)

Agar men borman deb aytsam, shubhasiz, biz ham bilardik, deysiz. Yaxshi bilasizki, men dunyo xalqlari bilan qayerda bo‘lmasin xoh yosh bo‘lsin, xoh qari, xoh shaharlik bo‘lsin, xoh qishloqlik, xoh boy bo‘lsin, xoh g‘arib, qaysi irq, qay millat, qay elat bo‘lishidan qat’i nazar bir-dek suhbat quraveraman.

Qayerga bormang, u odam oyog‘i yetmas Amazonka o‘rmonlari bo‘ladimi yo janub qutbining muzlagan yerlarimi, men siz bilan birga bo‘laman. Men hech qachon sizdan ranjimayman va hamisha, har qayoqda – osmonda, samolyotda, dengizdagi kemada, bepoyon dala-yu qirlarda ham yaqin sirdoshingizga – dildoshingizga aylanaman.

Uzoq umr kechirdim. Ming yillardan buyon yashab kelsam ham juda yoshman. Balki ishonmassiz, lekin har kuni uzoq va yaqindagi barcha joylarda dunyoga kelaman. Siz meni yaxshi ko‘rmasligingiz mumkin, lekin shuni bilingki, men sizni juda yaxshi ko‘raman. O‘zimga ko‘p ta’rif bermoqchi emas-

man, ammo siz men bilgan ba'zi narsalarni bilmasligingiz mumkin. Albatta, siz ham men bilgan narsalarni bilishga qodirsiz. Buning uchun men bilan bo'ling va meni seving.

Agar men bilan bo'lsangiz, sizni dunyo kezdiraman. Xohlagan joyingizga – Yerning eng quyi qismidan eng baland nuqtasigacha, hatto sayyoralarining istalgan burchagi-yu ummon tubigacha sayohat qildiraman. Hali ko'rasiz, qo'lingizdan tutib Sizni chumolilar uyasiga olib kiraman, biroq bir dona chumoli ham sizga yaqinlasha olmaydi, yo'lbars va sher kabi kuchli hayvonlar guruhiga yaqinlashtirib, ularni ko'rsataman, qo'rqmang, ulardan hech biri sizga zarar yetkazmaydi. Sizni daryolarning eng tubiga olib tushaman, biroq yuzingizga bir tomchi ham suv tegmaydi.

Hali ham meni tanimadingizmi? Nahotki?! Unda men bilan do'stlashishga shoshiling. Siz sevib tomosha qiladigan kinofilm-u multfilmlarning asosi – o'zim. Turli sohadagi qiziq ma'lumotlarning zanjiri mening kaftimda. O'tmish – hovuchim, eng noyob ajoyibotlardan tortib, eng muhim ta'rif-u tavsiflar qatimda, ajdod va avlodlaringiz haqidagi eng sara haqiqatlar qavatlarimda.

Endi tanigandirsiz?

Balli, fahmlaganingizdek, men – KITOBO, barcha donishmandlar, yozuvchilar va hunarmandlarning tiliman. Eng muhimi, ezgu xabar olib keluvchi va yetkazuvchilarning buyugiman. Yuragini tutganlarga yo'ldosh, qadrimga yetganlarga qo'ldoshman. Menda ham his-tuyg'u bor. Ha, his-tuyg'u. Hozir barmog'ingizni yozilgan so'zlar ustiga qo'ying-da, saf tortgan kipriklaringiz orasidagi qorachiq-laringizni menda qadang. Men sizning javharingizga singib, aql-idrokingizga tomchilayman-da, eng yaqin do'stingizga aylanaman. Ana shunda men Sizning, Siz mening qaynoq muhabbatimni his qilasiz. Yana, siz menga ko'rk, men sizga bezakman. Meni sevib o'quvchi inson hech qachon badxulq, fahmsiz, yalqov va eng muhimi bilimsiz bo'lmaydi. Men bilan birga bo'lsangiz barchaga yoqasiz, chunki siz hammadan chiroylisiz!.. Sizga aytar gapim – shu. Menga hamroh ekansiz maqsadingizga, albatta, yetasiz!..

**Mavzuga oid maqollar:**

*Kitob ko'rmagan kalla –  
Giyoh unmagani dala.*

*Kitobsiz aql – qanotsiz qush.*

**Topishmoq**

*Yolg'iz qolsam qo'ldoshdir,  
O'qib maza qilaman.  
Hayotimda ko'z-qoshdir,  
Endi ko'p ish bilaman.  
Bobom deydi: "Nur-oftob  
Uyga kirgan har..."*

*(kitob)*

## BAXT BELGISI

***Baxt ko'z bilan ko'rib, qo'l bilan ushlab bilinadigan narsa emas, faqat atrofingdagilarga qarab o'z baxt-saodatingni ko'ra olasan.***

***Odamning eng baxtli vaqti boshqalarga ezgulik qilgan onlaridir.***

***Baxtsizlikning belgisi nodonlikdir.***

***Baxtli bo'lishning chorasi mehnatni sevish va rohatni mehnatda ko'rishdir.***

*Donolar bisotidan*

## BAXT SAROYI

Qish kuni. Kech bo'la boshlagandi. Bir yigit yo'lda ketarkan katta bir o'rmon ichidan o'tishiga to'g'ri keldi. O'rmon qalin daraxtlar bilan qoplangani bois qorong'i. Yigit o'rmon ichida yura-yura yo'lni yo'qotib qo'ydi, adashdi.

Hushdan ketib yiqildi. Birozdan keyin ochlik va sovuq ta'sirida hushiga kelib ko'zini ochdi-yu yonida uch kishining turganini ko'rib, nima qilishini bilmay hayron bo'lib qoldi. Bulardan bittasi ipak ko'ylak kiyib, beliga oltin kamar bog'lagan, ikkinchisi qora ko'ylak kiyib, qora kamar bog'lagan va uchinchisi esa havo rang ko'ylak kiyib, beliga kumush kamar bog'lagan odam edi.

Bu kishilarning hammasi bir ovozdan:

– Ey yigit, sen bu yerda nima qilib yuribsan? – deb so'radilar.

Yigit titrab:

– Bekorchiman, hech bir ish qilmayman, o'rmondan o'tayotib adashib qoldim, dedi.

Ular:

– Ayt, bizdan nima istaysan? – deb so'ragan edilar, yigit bu qo'rqinchli o'rmondan qutqazishlarini o'tindi. Ular yigitga:

– Senga bir yo'l ko'rsatuvchi kerak ekan. Qani, bittamizni tanlab ol, qaysi birimiz senga yo'l boshchilik qilaylik? – dedilar.

Yigit o'ylab-o'ylab, nihoyat ipak ko'ylak kiygan, beliga oltin kamar bog'lagan boy savdogar qiyofali kishini tanladi. U kishi kulimsirab yigitni olib ketdi. Yurdilar-yurdilar, oxiri yigit charchab to'xtab qoldi. Oltin kamar sohibi:

– Nega to‘xtab qolding? Qani, yur, hali ancha yurishimiz kerak, – degan edi, yigit yurishga majoli qolmaganini aytdi. Oltin kamar sohibi yonidan katta o‘tkir pichoq olib:

– Mana shu pichoqni ol, – deb uni yigitning qo‘liga berdi.

Yigit hayron bo‘lib undan:

– Menga nega pichoq berdingiz? Bu pichoqni nima qilaman? – deb so‘ragan edi, u:

– Hozir shu yo‘lning chap tomonidan bir otliq yetib keladi. Sen unga hujum qilib o‘ldir. Keyin uning otiga minib, o‘rmondan chiqib ketasan, – dedi.

Yigit undan:

– Siz kimsiz, otingiz nima? – deb so‘ragan edi, u:

– Mening otim – yomonlik. Kel, men ko‘rsatgan yo‘ldan yur, shogirdim bo‘l, – dedi.

Yigit yomonlar ustodining yaramas so‘zlarini eshitib, juda ham g‘azablendi. Qo‘lidagi pichoqni irg‘itib yuborib, aytdi:

– Bu yerdan ket, mal’un! Sen boshlayotgan yo‘lga yurishdan hazar qilaman, – deb baqirgan edi, behush bo‘lib yiqildi.

Yigit birozdan keyin hushiga kelsa, ikki kishi – qora ko‘ylak kiyib, beliga qora kamar bog‘lagan va havo rang ko‘ylak kiyib, beliga kumush kamar



bogʻlagan insonlar uning yonida turganmish. Darhol qora kiyim kiyib, qora kamar bogʻlagan kishiga murojaat qilib, oʻrmondan chiqishga yordam berishini soʻradi. U kishi yigitning iltimosini qabul qilgach, ikkovlari yoʻlga tushdilar.

Ancha yoʻl yurib, bir jar yoqasiga yetib kelishdi. Yigit ortiq darajada charchagan, yurishga madori qolmagan edi, oʻsha yerda toʻxtab, dam olmoqchi boʻldi. U kishi yigitning toʻxtab qolganini koʻrib:

– Nega toʻxtab qolding? Yoʻlimiz hali uzoq. Dam olishni istaysanmi? Xoʻp, dam ol, mana shu baland yerdan oʻzingni tashla, pastda qulab tushsang abadiy rohatlanib dam olasan, – dedi.

Agar yigit oʻzini jarga tashlasa parcha-parcha boʻlib ketishi aniq sezdi. Shu bois u:

– Sen kimsan?.. Noming nima?.. Bu qanday taklif boʻldi?.. Mening oʻlishimni istaysanmi? – deya gʻazablendi.

Qora kamar sohibi:

– Mening nomim – umidsizlik. Sen ishsiz, yalqov yigitga oʻxshaysan, hayotga umidsizlik bilan qaraysan. Xuddi menbop bir yigit boʻlganing uchun senga yoʻl koʻrsatdim, kel, taklifimni qabul qil, – dedi.

– Sening koʻrsatgan yoʻlingga muhtoj emasman, men yashashni istayman, yalqov ham emasman.

Menga chin yo'lni ko'rsatgan olijanob odamlar izidan bormoqchiman, – dedi yigit.

Yigit birozdan keyin ko'zini ochib, u yoq-bu yoqqa qaragandi, havo rangli libos kiyib, beliga kumush kamar bog'lagan kishining yonida turganini ko'rdi. Avvalgi ikki kishidan yaxshilik ko'rmay yurakbag'ri kuygan yigit uchinchi kishiga ham ishonmay, uning yonidan qochib ketmoqchi bo'ldi. Lekin u mu-loyim tovush bilan:

– O'g'lim, mendan qo'rqma, beri kel, men seni bu qo'rqinchli o'rmondan olib chiqib, to'g'ri yo'lni ko'rsataman, – dedi.

Yigitning ko'ngli orom oldi, uning yoniga kelib, hol-ahvol so'rashdi, so'ngra yo'lga tushdilar. Tong ham ota boshlagan edi. Haligi yo'lboshlovchi yerda yotgan uzun va yo'g'on daraxt shoxini ko'rsatib:

– Bu shoxni yelkangga qo'yib ol, – dedi.

Yigit itoat qilib, shoxni ko'tarib olib yelkasi-ga qo'ydi. Biroz yurganlaridan keyin qo'rqinchli o'rmondan chiqib, katta va ravshan yo'lga tushdilar. Yo'lning o'ng yonida ulug'vor va go'zal bir saroy ko'rindi. Haligi odam:

– O'g'lim, bu o'rmonni va bu daraxt shoxini unutma. Shoxni yerga tashlab, saroyga kir, barcha maq-

sading hosil bo'lib, baxtli umr kechirasan, – dedi va o'zi o'rmonga qarab keta boshladi.

Yigit shoxni yerga tashlagan edi, shox yerga tushib bir qop oltin bo'lib sochilib ketdi. Yigit bag'oyat hayratda qoldi. Haligi kishini chaqirib:

– Og'ajon, to'xtang, ochiq, ravshan yo'lga soldingiz, siz kimsiz? Otingiz nima? Bu qanday saroy? – degan edi, u kishi o'rmon ichidan baland ovoz bilan:

– O'g'lim, mening otim – mehnat, laqabim sa'y-g'ayrat. Bu saroy “Mehnat saroyi” deb ataladi. Bu go'zal saroyga kirib, chin ixlos bilan ishla, sa'y-g'ayratni qo'ldan berma, mehnating tufayli aziz va mukarram bo'lasan, – deb javob berdi.

Yigit sevinib “Mehnat saroyi”ga kirgan edi, shu ondayoq unga baxt-u iqbol eshiklari ochildi.

## UCH BUYUK TABIB

Har tomonga dong'i ketgan mashhur tabib og'ir betob bo'lib yotib qoldi. Uning shogirdlari birikib, ustozlarini davolashga kirishdilar. Bemor tabib ularga:

– Chiroqlarim, meni davolash uchun behuda zahmat chekmang. Sog'ayishdan umid uzganman, o'limim yaqin qolganga o'xshaydi. Vafot topganimdan keyin behuda qayg'urib oh-voh chekmang, o'rnimga uchta buyuk tabib qoldirib ketmoqdaman. Shu uch tabibning yo'l-yo'rig'iga yuring, maslahatlariga e'tiborli bo'ling va boshqalarni ham shunga chaqiring, – dedi.

Shogirdlardan biri:

– Aziz ustoz, o'ringizga qoladigan uch tabibni bizlarga tanishtiring, – deb iltimos qildi.

Ustoz ko'zlarini ochib, yonidagi shogirdlariga shunday deb xitob qildi:

– Uchta hoziq tabibning biri – poklik-ozodalik, ikkinchisi – parhez, uchinchisi – badantarbiyadir. Do-

imo ozoda bo'lishlik, tiqishtirib apil-tapil yemasdan, me'yorida ovqatlanish, badan a'zolarini harakatsiz qoldirmasdan, badantarbiya bilan shug'ullanish – bularning barchasi salomatlikni saqlovchi eng yaxshi choralardir.

### **Hikmat**

*Barcha lazzatni totib ko'rdim, ammo salomatlikdan chuchukroq lazzatni topmadim.*

**Luqmoni Hakim**

## AYIQ VA ARSLON

Qarib bukchayib, yurolmay qolgan ayiq ko'chada o'tirib olib, hadeb tesha bilan yer kovlar edi. Tepasiga hayvonlar sultoni arslon kelib so'radi:

– Ha, Ayiqpolvon, yerni kovlab nima qilmoqchisan? Yo o'zingga go'r qaziyapsanmi?

– Ko'rmayapsanmi, sultonim, daraxt ekyapman, – javob berdi ayiq.

– Voy kaltafahm-ey, bir oyog'ing yerda, bir oyog'ing go'rda bo'la turib, ko'chat ekayotganingni qara-ya!.. Bu hosil berguncha narigi dunyoga ravona bo'lasan-ku!..

– Og'zingizdan chiqayotgan so'zni o'ylab gapiring, – dedi ayiqning jahli chiqib. – Buning hosilidan hali sizga ham olib boraman.

Arslon ayiqning so'zidan ta'sirlanib, unga bir tovoq asal berdi. Asalni qo'lga olgan ayiq birdan xoxolab kulib yubordi.

– Nega kulasan, befarosat? – dedi arslon.

– Ey, hayvonlarning sultoni, o‘rmonlarning homiysi, kulmay nima qilay, kulaman-da. Manavini qarang, – dedi ayiq qo‘lidagi asalgacha ishora qilib, – ekan ko‘chatimning birinchi hosilini ko‘rib turibman. O‘rnimdan turmasdan yotaverganimda siz asal tugul, bir qultum suv ham bermasdingiz.

### **Hikmat**

*Badan doim harakatda bo‘lar ekan, davoga hojat qolmaydi.*

**Abu Ali ibn Sino**

*Kumushdek ter to‘ksang,  
Gavhardek dur olarsan.*

*Tek turganga shayton tayoq tutqazar.*

**O‘zbek xalq maqollari**

## IKKI VAZIR VOQEASI

O'tgan zamonda bir tadbirkor shoh yashagan ekan. Shohning ikki vaziri bo'lib, ular ko'p ovqat yeb, ko'p uxlab, kam harakat qilib hayot kechirishar ekan. Shu bois vazirlar bir-birlariga bosh og'rig'idan, darmonsizlikdan shikoyat qilisharkan. Podsho: "Vazirlarimni nima jin urdi, to'nkaga aylanib qolishyapti-ku", deb ajablanibdi. Bir kuni shoh vazirlari bilan otda ketayotib, yoshi saksondan oshgan, soch-soqoli qorday oppoq bir qariyaga duch kelibdi. Qariya chaqqon harakat qilib, ketmon bilan yer chopayotgan ekan. Shoh qariyadagi g'ayrat bilan vazirlaridagi sustlikni solishtirib, u bilan gaplashgisi kelibdi va yaqin borib:

– Hormang, dehqon ota, – debdi. – Qanday ko'chat ekyapsiz!

– Salomat bo'ling, kelinglar, mehmonlar!.. Ha-a, olma ko'chati ekayotgandim, juda serhosil olma ekan. Tutib qolsa, sizlarday yo'l yurib, chanqab kelayotganlar undan yeb, bahramand bo'lishadi.



Dehqon otaning soʻzi shohga maʼqul tushibdi. Boylik berib sinab koʻray-chi, mehnatdan aynirmikan, deya dehqonga bir hamyon tillo beribdi.

Vazirlar boʻlsa dehqonga:

– Ana endi sira ishlamay, oyoq uzatib, shu tilloni yeb yotaversangiz boʻladi. Ishlab, oʻzingizni urintirishingizga hojat qolmadi. Baribir bu koʻchatlarni oʻtqazganingiz bilan hosilini koʻrish nasib boʻladimi, yoʻqmi, – deyishibdi.

– Mehnatga oʻrgangan odamman, bekorchilikni yomon koʻraman, – debdi dehqon. – Elga foydasi tegmagan, kishilarni quvontirmagan odam – odammi? Bu tillolarni ham shu atrofni obod qilishga sarflayman. Itifotingiz uchun sizga katta rahmat, shohim, – debdi dehqon.

Oradan bir necha kun oʻtgach, shoh vazirlariga buyuribdi:

– Chol nima qilayotgan ekan? Borib biling. Keyin unga: “Shoh, sizga ikkita semiz oʻrdak yubordi. Oʻrdaklarning har biridan yuztadan pat yulib olar ekansiz”, deb ayting.

Vazirlar kun issigʻida terlab-pishib borib qarasa-lar, tashlandiq, qarovsiz joy tanib boʻlmas darajada oʻzgarib ketibdi. Dehqon ota bir necha hasharchilar bilan yerni haydab, chopib, qovun-tarvuz ekib,

turli daraxtlar o'tqazayotganmish. Vazirlar shoh buyrug'ini dehqonga aytgan ekanlar, u kulimsirab:

– Shoh so'zini bajarmasak, siz ham, men ham jazo olamiz. Otdan tushing, yeng shimarib ishimizga yordamlashing. Shohning "Ikki semiz o'rdak" degani sizlar bo'lasizlar, "Yuztadan patini yuling" degani ularni yuz kun ishlating, degani bo'ladi", – debdi chol.

Vazirlar shoh buyrug'ini bajarishga majbur bo'lishibdi. Yuz kun o'tgach, ular ancha xipcha tortib, chaqqon, sog'lom kishilarga aylanibdilar. Mehnat ularning tanlariga darmonni, ruhlariga kamtarlikni bag'ishlagan ekan.

### **Hikmat**

*Baxt havoda esmaydi, balki mehnatdan keladi.*

**Abu Abdulloh Ro'dakiy**

*Mehnatni sevish, g'ayrat va matonat bilan ishlashning uchta shirin mevasi bor: tan salomatligi, ko'ngil rohati, zehning ortishi.*

**Donolar bisotidan**

## AYIQ VA CHIVIN

*Jahon xalq ertaklaridan*

O'rmon jonivorlari orasida ayiq ham yashar, u hayvonlar ichida eng baquvvati, ammo eng badfe'li hisoblanar ekan. U hech qanday sababsiz qushlar va kichkina hayvonlarni xafa qilargan ekan. Bir vaqt qushlar inini buzsa, boshqa payt chumoli uyasini bosib tashlardi. Shunday kunlarning birida ayiq quyovni tutib olibdi va dilxushlik hamda ermak uchun uning quloqlarini cho'zibdi. Joniga tekkani-dan keyin quyovni yerga qo'yib bir tepib, lapanglab yurib ketibdi.

Quyov o'tirgan holda yig'lar, qo'rquvdan butun vujudi titrar edi. Uning ustidan hech kimga shikoyat qilolmas – axir, sher ham, bo'ri ham, tulki ham ayiqning ajralmas do'stlari edi-da!

– Mening kuchli do'stlarim yo'q, – kuyunibdi quyov, – meni hech kim himoya qilmaydi!

– Yig'lama, seni men himoya qilaman!.. – Birdan gamishlar orasidan vizillagan ovozni eshitibdi quyov.

Atrofiga alanglagan edi, uni chivin tinchlanti-rayotgan ekan. Bu quyonga kulgili tuyulibdi, bir zumda ko‘z yoshlari quribdi.

– Se-e-en?! – deb kulibdi u. – Sen zig‘irday chivinga shunday kuchli ayiq bilan teng kelishga yo‘l bo‘lsin? Holingga qarab maqtansang bo‘lardi!..

– Men umuman maqtanayotganim yo‘q, – javob beribdi chivin. – Men ayiqdan kuchliman, sen bunga tezda iqror bo‘lasan.

Shuni aytib, chivin ayiqning izidan uchib ketibdi.

Ayiq bu payt qalin daraxt soyasida dam olardi. Issiq va dim havo uni elitmoqda edi. Birdan naq qulog‘i tagida: «Z-z-z-z!» degan tovush eshilib qolibdi.

“Eh sen! Yaramas chivin!” – ayiq chivinni tanibdi. “Hozir mening burnimga qo‘nadi, men uni ezg‘ilab tashlayman”, o‘yladi u.

Chivin aylanib kelib, Ayiqning burniga qo‘nibdi, u bo‘lsa panjalari bilan burniga shapillatib solibdi. Shunday bo‘lishini bilgan chivin undan oldin uchib ketibdi va yana ayiqni tinch qo‘ymabdi:

– Z-z-z-z!

“Ha, – o‘ylabdi maymoq, – o‘zimni uxlayotganga solaman, u esa uchib ketadi”.

Chivin esa uchib uning qulog‘ining ichiga qo‘nibdi va boplab chaqibdi. Ayiq og‘riqdan bo‘kirib yuborib-

di va sakrab turib, o‘zining qulog‘iga shunday tushiribdiki, oqibatda ko‘zidan o‘t chaqnab ketibdi.

“Hoynahoy, uni o‘ldirgandirman”, o‘ylabdi ayiq va yana-da o‘ng‘ayroq yotib olibdi. Lekin yotganday bo‘lmabdi, boisi chivin uning qulog‘i ustida yana g‘ing‘illabdi.

– Eh, sen yaramas! Buncha joning qattiq! – o‘kiribdi ayiq va boshqa joy izlab ketibdi. U to‘qayga kirsa ham, chakalakzorga borsa ham chivinning: “Z-z-z-z!” degan tovushini eshitardi. Endi ayiq chivindan juda bezor bo‘lgan edi. Uzoq vaqt yugurib, qorong‘i tushguncha undan qochibdi. Nihoyat, batamom kuchdan qolgan ayiq bir daraxt yoniga yiqilibdi. Ayiq atrofga quloq tutibdi, jimjitlik, tun cho‘kkan, hamma hayvonlar allaqachon uxlab qolgan. “Harqalay, chivindan qutuldim!” o‘ylabdi va qulayroq o‘rnashib olib, uxlab qolibdi. Charchagan ayiq uxlab, tush ham ko‘ribdi. Go‘yo tushida asal bilan to‘la asalari uyasini topib olgan emish. Panjalarini uyaga cho‘zgan ekan hamki, birdan qulog‘i oldida: “Z-z-z-z!” degan tovush eshitilibdi.

Ayiq xuddi bir narsa chaqqanday sakrab turibdi va qo‘rquvdan uni hiqichoq tutibdi: “Hiq-hiq!” Chivin goh burni oldida, goh quloqlari, goh boshi ustida, goh yonida, goh pastroqda vizillardi. Ayiq

bizbizak kabi aylanib-o'rgilar, qo'llari bilan o'zining hamma joyiga urar, chivinni o'ldirishni istardi. Chivinga esa hech qanday zarar yetmasdi. Chivin tongga qadar ayiqni holdan toydiribdi.

Tong otishi bilan barcha hayvonlar va qushlar uyg'onibdilar. O'rmon quvnoq tovushlarga to'libdi. Faqat ayiqqa shodlik tatimas edi. Darg'azab, ezilgan, hamma yog'i hurpaygan ayiq chayqalar, oyoqlarini zo'rg'a qimirlatar edi. Ko'zlari uyqusiz kecha tufayli yumilib borar, quloqlarida hamon chivinning vizillagan ovozi eshitilardi.

Quyvon holdan toygan ayiqni va uning ustida uchayotgan chivinni ko'rib, quvonganidan hatto sakrab yuboribdi.

– Yashavor, chivin! Ofarin senga! – sakrardi quyvon va ko'zi yoshga to'lguncha qah-qah urardi.

Chivin quyonga yaqin uchib kelib:

– Xo'sh, endi mening ayiqdan kuchli ekanligimga ishondingmi? – deb so'rabdi.

– Ishondim, ishondim! Rahmat senga, do'stim!

Keyin ayiqning ortidan qichqiribdi:

– Qandaysan endi, Ayiqvoy! Endi kuchsizlarni ranjitmasang kerak!

O'sha paytdan buyon ayiq qushlarga va kichkina hayvonlarga mutlaqo ozor yetkazmaydigan bo'libdi.

## OVCHI VA QUSHLAR

Bir ovchi daraning chekkasiga to‘rdan tuzoq qo‘yibdi. To‘r tagidagi don-dunlarga aldangan bir to‘da qushlar tuzoqqa ilinib qolibdi.

Ovchi to‘r tuzoqlaridan xabar olgani kelsa, unga ilingan qushlar gurr etib, to‘rni ham ko‘tarib, uchib ketishibdi. Qushlarning bir tan, bir jon bo‘lib, ustiga-ustak, to‘r tuzoqni ham ko‘tarib uchishlariga lol qolgan ovchi orqalaridan quva boshlabdi.

Yo‘lda bir odamga duch kelibdi. Yo‘lovchi ovchidan nega buncha hovliqib chopayotganining sababini so‘rabdi. Ovchi esa, osmonda uchib borayotgan qushlarni ko‘rsatib, ularni tutmoqchi ekanini aytibdi. Haligi odam kulibdi:

– Senga Alloh aql bersin, hech jahonda uchib ketayotgan qushlarga yugurib yetib bo‘larkanmi? – debdi.

Ovchi:

– Yetsa bo‘ladi, – debdi. – Tuzoqda bittagina qush bo‘lsa edi, yeta olmasdim, ammo ko‘rib turibsanki, ular ko‘p. Shuning uchun yetib olaman.

Ovchi aytgandek bo‘libdi. Oqshom tushib, osmon ham qorong‘ulashgani sari qushlarning har biri o‘z uyasiga ketmoqchi bo‘libdi. Birlari tuzoqni o‘rmonga tortsa, boshqalari ko‘l tomon tortar emish. Ba‘zilari tog‘ga, yana boshqalari changalzorga talpinarmish. Oqibatda hech qaysisining aytgani bo‘lmabdi. Tuzoqqa o‘ralib, hammasi yerga qulabdi.

Ovchi kelibdi-da, ularning hammasini tutib olibdi.

### **Hikmat**

*Ikki shunqor urishsa,  
Bir qarg‘aga yem tushar.*

**O‘zbek xalq maqoli**



## MUSHUK BILAN CHUMOLI

*Rus xalq ertagi*

Juda ham semirib, yaltillab ketgan mushuk yo‘l yoqasida mudrab o‘tirgan ekan. Ashula aytib ishga ketayotgan chumoli mushukni ko‘rishi bilan jimib qolibdi-da, qadamini sekinlatibdi. Qo‘rqqanidan emas, mushukni uyg‘otmaslik uchun shunday qilibdi.

Ozmi-ko‘pmi vaqt o‘tib, mushuk uyg‘onibdi. Ko‘zlarini chala-chulpa ochib qarasa, chumoli og‘zida don olib kelayotgan edi. U mushukning oldiga yetganida donni yerga qo‘yib salom beribdi.

– Hormang, Miyov xola! – debdi.

– Hali horiganimcha yo‘q, qora qiltiriq, – debdi mushuk, – faqat zerikib o‘tiribman, xolos.

– Ishlamasangiz zerikasiz-da, – debdi kulib chumoli. – Men mehnat qilib zerikmayman.

– Nega endi men ishlar ekanman?! – debdi mushuk ensasi qotib. – Egam bor – nima g‘amim bor. Sen

shoʻrlik boʻlsang baxtsizsan. Chunki sening boradigan uying, yuvib taraydigan, silab-siypaydigan xoʻjayining yoʻq.

– Bu gapingiz xato, Miyov xola, – debdi chumoli ranjib. – Siz oʻylaganingizdek baxtsiz emasman, baxtliman. Chunki mehnat qilishga yetadigan kuch-quvvatim, gʻayratim bor. Kimki mehnat qilmasa, oʻsha baxtsiz.

Mushuk oʻylab qarasa, bahsda yengilib qoladigan. Shuning uchun ham gapni boshqa yoqqa burishga harakat qilibdi.

– Hazillashdim, Chumolivoi, – debdi u. – Men ham baxtliman. Sichqon ovlayman.

– Sichqonni onda-sonda ovlaysiz-da!.. Har kuni mehnat qilsangiz...

– Gaping toʻgʻri, – debdi mushuk. – Men har kuni mehnat qilmayman. Chunki, birinchidan, doim qornim toʻq. Ikkinchidan, sichqonni egamdan qoʻrqqanimdan ovlayman.

– Demak, ayyor ekansiz, – chumoli shunday deb donni olibdi-da, yoʻlida ketaveribdi. Terlab-pishib borar ekan, oʻzicha: “Yaxshiyam, egam yoʻq, boʻlmasa mushukka oʻxshab yalqov, ayyor boʻlib qolarkanman”, deb oʻylabdi.

Mushuk bo'lsa, chumolining ortidan qarab turib: "Yaxshiyam, egam bor, bo'lmasa men ham chumoliga o'xshab tinim bilmas edim", debdi o'z-o'ziga.

### **Hikmat**

*Rizq topmoqda chumolidek o'zingni ishchan bil,  
Pashshadek xonish qilib, har sufradan quvlanmagil.*

*Mehnatni sevmagan yalqov kishi har turli no-  
maqbul ishlardan tortinmaydi.*

*Yalqovlik muhtojlik eshigidir.*

**Donolar bisotidan**

## AKA-UKALAR

Eslab bo'lmaydigan zamonlarda ikki aka-uka yashagan ekan. Ular bir-birini ardoqlar va bir-biriga shunday g'amxo'rlik qilishardiki, butun qishloq ular haqida gapirardi. Aka-uka o'zlarining beva qolgan onalarini g'oyat avaylashar va e'tibor bilan qarashardi. U olamdan o'tgandan keyin esa bor merosini murosa bilan bo'lib olishibdi.

Ikkalasi ham dalada astoydil mehnat qilar, yaxshi hosil yetishtirish uchun harakat qilishardi. Shuning uchun ham ular har yili kuzda boshqalardan ko'ra ortiq hosil olishardi. Yig'ilgan hosilni taqsimlab olishgan kuz kunlarining birida akasi o'ylabdi va o'ziga o'zi debdi: "Ukam yaqinda uylanadi. Uning xarajatlari ham ko'proq. Kechqurun o'zimning hosilimdan bir qop guruchni unikiga olib boraman. Bu mening unga yashirin sovg'am bo'ladi. Aks holda u sira olmaydi".

Shunday qilibdi ham. Kech tushganda u ukasi-ning uyiga yashirincha bir qop guruchni olib boribdi.

Ertalab esa aka o'z qoplarini sanab, zaxirasi bir qopga ham kamaymaganini aniqlabdi. U hay-

ron bo'libdi, kechqurun yana bir qop guruchni olib, ukasining uyiga boribdi va sezdirmay uning omboriga qo'yib qaytibdi.

Keyingi kun ertalab yana o'zining hamma qoplari joyida ekanligini ko'ribdi.

– Mana senga mo'jiza! – debdi u. – Hay, mayli, bugun ham bir qop olib borib ko'ray-chi.

Tun. Oy chiqibdi... Ovqatlanib bo'lgan aka bir qop guruchni ko'tarib, ukasining omboriga yo'l olibdi. Birdan u ukasi ham u tomonga bir qop guruch ko'tarib kelayotganini ko'rib qolibdi.

– Nega? – birdaniga so'rashibdi aka-ukalar va kulib yuborishibdi.

Akasining oilasi katta bo'lganligi uchun ukasi unga yordam berishga qaror qilganligi ayon bo'libdi.

Bir-birlariga shunday g'amxo'rlik qiluvchi aka-ukalar yana ham yaxshi yashabdilar va ko'p farzand ko'ribdilar.

### **Hikmat**

*Qayrag'och qalin bo'lsa, yomg'ir o'tmas,  
Og'a-ini totuv bo'lsa, xo'rlik yetmas.*

*Boylik boylik emas,  
Ahillik – boylik.*

**O'zbek xalq maqollari**

## HAKKA VA TULKI

Kunlarning birida tulki ovqat izlab o'rmon kezar ekan hakkani ko'rib qoldi. Ayyorlik qilib o'zini o'lganga solishga qaror qildi. Hakka daraxtning shoxidan uchib kelib tulkinging ustiga qo'ndi. Tulki-ni rostdan ham o'lganligini tekshirib ko'rish uchun bir-ikki bor cho'qib ko'rdi. Tulki pisib yotar va qimir etmasdi. Hakka tulkinging boshiga qo'ndi va uning qulog'ini cho'qib, keyin ishonch bilan tumshug'i to-monga o'tdi.

Tulki shu zahotiyuq hakkani oyog'idan tutib oldi. Hakka achchiq-achchiq yig'ladi.

– Bolalik chog'imda ota-onam mendan qattiq jahllari chiqqanda, seni tulki tutib olsin, deb qar-g'ashar edi. Shunchaki tutib olmasdan, balki seni baland tog'dan shunday tashlab yuborsinki, har bir tosh tanangni majruh qilib, tulkiga xuddi urib ezil-gan g'o'shtday nasib etsin, deyishardi. Ko'rdingmi, o'sha qarg'ish amalga oshyapti, – javob berdi ho'ng-rab hakka.

Ota-onasining istagi tulkinging ko'nglidagiday bo'lib chiqdi va ularning xohishini ijro etishga qaror qildi. Tulki eng baland qoyaga ko'tarildi va u yoqdan hakkani tashlab yubordi. Hakka quvonch bilan qanotlarini yoydi va uchib ketdi. Tulki esa og'zini ochganicha qolaverdi.

### **Hikmat**

*Erkinlik istaklarni jilovlash natijasida erishiladigan eng oily ne'matdir.*

**Epikur**

## MAQTANCHOQ OQQUSH

Katta bir dengiz qirg'og'ida bir juft oqqush yashar edi. Bahor kelib, barcha qushlar tuxum qo'yadigan paytda ona oqqush ota oqqushga qarab: "Dengiz to'lqinlari yetmaydigan, mustahkam va ishonchli joy toping, toki men tuxum qo'yganimdan so'ng qattiq bo'ron turib, dengiz mavjlanib, bolalarimni daryoga olib ketib qolmasin", debdi. Shunda ota oqqush: "Sen hech xavotirlanmasdan bemalol shu yerga tuxum qo'yaver. Men daryo to'lqinlarining menga nisbatan bunday behurmatlik qilishlariga ko'zim yetmaydi", deya maqtanibdi. Ona oqqush: "O'ziga ishonish yaxshi narsa. Xo'p, shunday ham deylik. Dengiz to'lqinlari kelib, bolalarimizni olib ketsa nima qilasiz? Yaxshisi, siz bu maqtanchoqligingizni yig'ishtirib, to'lqinlardan uzoqroqda bo'lgan biror joy topganingiz ma'qul", debdi.

Shunda ota oqqush: "Bilaman, xavotirlanyapsan, ammo qo'rqmasdan mana shu yerga tuxum qo'yaver, qolganini menga qo'yib ber", debdi. Ona oqqush nochorlikdan o'sha joyga tuxumlarini ochibdi.



Ota oqqushning bu gaplarini dengiz to'liqlari eshitib turgan ekan. Uning maqtanib gapirgan so'zlari ularning g'ururiga tegibdi va o'zlariga o'zlari "Hali ko'ramiz, bu maqtanchoqliging qayergacha borar ekan", deya pichirlashibdi. So'ngra ular kuchli mavjlanib, dengiz qirg'og'iga urila boshlashibdi va oqqush tuxumlarini o'zlari bilan dengizga oqizib ketishibdi.

Shunda ona oqqush zorlanib: "Ana ko'rdingizmi, aytgandim-ku, dengizning kuchli to'liqlari bilan hazillashib bo'lmaydi, deb. Sizning nodonligingiz tufayli polaponlarimizdan ayrildik. Endi nima qilamiz?!" debdi. Ota oqqush esa to'liqlar ustida nima qilishini bilmay u yoqdan bu yoqqa uchib chirqillayveribdi, xolos.

### **Hikmat**

*Kimki falak sori otar toshini,  
Tosh ila ozurda etur boshini.*

**Alisher Navoiy**

*Dushman bilan yaqinlashgan kishidan uning do'stlari ham qochadilar... Ishining oqibatini o'ylagan kishi falokatlardan omon qoladi.*

**Abu Mansur Saolibi**

## HAQIQIY DO'STLIK

Barg bilan kesak qalin do'st tutinib, bir-biridan ajralmaslikka, og'ir kunlarda bir-birlariga yordam berishga va'dalashishibdi. Ular ahil yashay boshlabdilar. Kunlardan bir kun qattiq shamol turibdi.

Shamolning g'uvullashidan qo'rqib ketgan barg kesakka nolish qilib yig'labdi. Shunda kesak:

– Hech narsadan qo'rqma, men seni bu balodan qutqaraman, – deb bargni pana qilib to'sibdi.

Shamol qanchalik kuchli esmasin, bargni uchirib keta olmabdi. Bundan shamolning jahli chiqib, yomg'irni yuboribdi. Bu bilan u kesakdan o'ch olmoqchi bo'libdi. Lekin yomg'ir ham ularni qo'rqitadilmabdi. Yomg'irning yog'ishini ko'rgan kesak bargga nolish qilibdi. O'zini yomg'irdan qutqarishini so'rabdi. Shunda barg kesakni yomg'irdan pana qila boshlabdi. Qanchalik ko'p sel yog'masin, kesak nam bo'lmabdi. Yomg'ir tingach, kesak bilan barg xursand bo'lishibdi. Ularning bir-birlariga mehr-oqibatlari yanada ortib, inoqlashib ketibdilar.

## **Hikmat**

*O'zingga sodiq do'st tanlasang, uning panohida  
yashaysan. U kengchilikda ziynat, qiyinchilikda qal-  
qon bo'la oladi.*

**Umar ibn Xattob**

*Yaxshi libos tanga oroyish,  
Yaxshi qo'ldosh jonga osoyish.*

**Alisher Navoiy**

## YOMONLIK QILGANGA...

*O'zbek xalq ertagi*

Bir podshohning dono vaziri har kuni podshohning huzuriga kirganda:

– Yaxshilik qilganga yaxshilik qiling, yomonlik qiluvchiga o'zining yomonligi kifoyadir, – der edi.

Podshoh dono vazirni e'zozlardi, ammo mulozimlardan biri ana shu vazirni ko'rolmasdi.

Bir kuni o'sha hasadchi mulozim podshohga arz qildi:

– Vaziringiz doimo sizni haqoratlab: “Podshohning og'zidan badbo'y hid anqiydi, yaqiniga borishga aslo toqat qila olmayman”, deydi, – dedi.

Podshoh hasadchidan:

– Bu so'zingga dalil ko'rsata olasanmi? – deb so'radi.

Hasadchi:

– Vazirni huzuringizga chaqiring, burnini tutib kirsa, to'g'ri so'zlaganimni bilasiz, – dedi.

Nobakor mulozim podshoh yonidan chiqib, vazirning yoniga bordi, uyiga ziyofatga taklif qildi. Vazir mehmon bo'lib kelgach, uni sarimsoq qo'shilgan ovqat bilan ziyofat qildi. Vazir ziyofat tamom bo'lgandan so'ng hasadchining uyidan chiqib, to'g'ri podshohning saroyiga yo'l oldi.

Podshoh: "Yaqinroq kel!" degach, vazir "Tag'in podshoh sarimsoq hididan behuzur bo'lmasin", deb og'zi-burnini qo'li bilan berkitganicha podshohga yaqinlashdi. Podshoh buni ko'rgach, mulozimning so'zi to'g'ri ekaniga ishondi.

Podshohning bir odati bor edi: kimga iltifot yoki g'azab qilsa, muhrlangan maktub tutqazib: "Bu nomani saroy ijroqo'mi boshlig'iga ber!" deb maktubni u kishiga topshirardi. Ijroqo'm boshlig'i nomani o'qib, podshoh nima buyurgan bo'lsa, uni amalga oshirardi.

Bu safar ham podshoh odatiga muvofiq maktub yozib, muhrlab vazirga tutqazdi. Vazir maktubni olib ketarkan, yo'lda hasadchi mulozim uchrab qoldi:

– Bu nima? – so'radi hasadchi.

Vazir yaxshi gumonini undan berkitmadi:

– Podshohimiz kaminaga qimmatbaho libos in'om qildilar, – dedi.

Mulozim vazirga yalinib-yolvorib:

– Oramizdagi izzat-ikrom hurmati maktubni menga bering, libosni men olay. Bu iltifotingizni aslo unutmaysan, – dedi.

Vazirning rahmi kelib, maktubni unga topshirdi.

Hasadchi sevinib, maktubni olib borib ijroqo‘m boshlig‘iga topshirdi. Ijroqo‘m boshlig‘i nomani o‘qib ko‘rib mulozimlariga:

– Bu odamni o‘ldiringlar, podshoh shunday buyuribdi. Podshoh amrini darhol bajo keltiring! – dedi.

Ijroqo‘m boshlig‘ining buyrug‘ini eshitgan hasadchi:

– Bu vazirga berilgan maktub edi, men undan tilab olgandim! – deb dod-faryod ko‘taribdi.

Ijroqo‘m boshlig‘i bu voqeani podshohga ma‘lum qildi. Podshoh bu ishni yaxshilab taftish qilgach, hasadchining sarimsoq qo‘shilgan taom bilan vazirni ziyofat qilgani, vazir ehtiyot yuzasidan burnini tutgani podshohga ayon bo‘ldi. Shundan so‘ng vazirning begunoh ekaniga ishongan podshoh uning martabasini yanada oshirdi, hasadchini esa jazoladi.

Podshoh dono vaziri bilan xoli qolgach:

– Har kuni huzurimga kirganingizda birinchi so‘zingiz “Yaxshilik qilganga yaxshilik qiling, yomonlik qiluvchiga o‘zining yomonligi kifoyadir” der edingiz. Haq ekansiz, hasadchining yomonligi o‘zining oyog‘idan chaldi, – dedi.

## **Hikmat**

*Ig'vo va chaqimchilik eng yaramas sifat bo'lgani uchun bu yomon sifatni o'zlariga maslak qilib olgan kishilar xalq nazarida munofiq sanaladi. Ikki kishi orasida so'z yuritib, birini ikkinchisiga dushman qilgan, ikki tomonga adovat olovini yoqib, ularni bir-biridan judo etgan kishilarning dillarida zarra-cha insoniyat tuyg'usi bo'lmaydi, bular vijdotsiz, nomussiz kishilardir. Shuning uchun ulardan hazar qiling.*

**Abdulla Avloniy**

## OLMAXON

*Qozoq xalq ertagi*

Olmaxon paxmoq dumini likillatib, shoxdan shoxga sakrab, o'ynab yurgan ekan, birdan daraxt soyasida uxlab yotgan bo'rining ustiga tushib ketibdi. Bo'ri shu zahotiy oq olmaxonni tutib olibdi.

– Iltimos, meni o'ldirma, qo'yib yubor, – deb yalolibdi olmaxon.

– Mayli, faqat bir savolinga javob ber. Nima uchun sizlar doim quvnoq va beg'amsizlar? – debdi unga bo'ri.

– Oldin qo'yvor, keyin savolingga javob beraman. Hozir qo'rqqanimdan yuragim yorilib ketay deyapti-yu, tilimga so'z kelarmidi, – debdi unga javoban olmaxon.

Bo'ri olmaxonni bo'shatibdi. U lip etib daraxt shoxiga chiqib olibdi va o'sha yerdan turib:

– Sen doim yomonlikni o'ylaganing uchun jahldor-san. Biz esa hech kimga yovuzlik qilmaymiz, shuning uchun doimo quvnoq va baxtiyormiz, – debdi bo'rining savoliga javoban olmaxon.






## MUNDARIJA

<b>So'zboshi</b> .....	3
<b>Saxiylik va baxillik</b> .....	5
Saxiy bilan baxil.....	6
<b>Nodonlik</b> .....	14
Oyni olmoqchi bo'lgan sardor .....	14
<b>Tadbirkorlik</b> .....	20
Donishmand hokim.....	20
Dono quyon.....	23
<b>O'jarlik</b> .....	26
O'jar er .....	27
<b>Mohirlik</b> .....	32
Usta Teshavoy.....	33
<b>Sabrlik</b> .....	37
Qandolatchi va tuzchi .....	37
<b>Xudbinlik</b> .....	41
Shayx Chili bilan shayton .....	41
<b>Mas'uliyat hissi</b> .....	46
O'yinqaroq bola .....	47
<b>Mehr-oqibat</b> .....	50
Ona qarzi .....	51
Do'st holidan bexabarlik.....	54
<b>Hunarmandlik</b> .....	56
Hunarli yigit.....	56
<b>Omonatdorlik</b> .....	67
O'g'rining omonati.....	67

<b>Mehnatsevarlik</b> .....	71
Kimning qo'li chiroyli.....	71
Ota vasiyati .....	74
<b>So'zida qat'iylik</b> .....	77
Novvotga aylangan "javohir" .....	77
<b>Ahillik</b> .....	84
"Ayrilganni ayiq yer" .....	84
Ahillik – ulug' baxt.....	87
<b>Halollik</b> .....	89
Ikki do'st va bir xumcha oltin.....	90
Sutga qo'shilgan suvning selga aylanishi.....	93
<b>Shukronalik</b> .....	96
Kiyik va toshbaqa .....	96
<b>Kitobxonlik</b> .....	102
Dono do'st .....	103
<b>Baxt belgisi</b> .....	107
Baxt saroyi .....	107
Uch buyuk tabib.....	113
Ayiq va arslon.....	115
Ikki vazir voqeasi.....	117
Ayiq va chivin.....	120
Ovchi va qushlar .....	124
Mushuk bilan chumoli .....	126
Aka-ukalar.....	129
Hakka va tulki .....	131
Maqtanchoq oqqush .....	133
Haqiqiy do'stlik .....	135
Yomonlik qilganga.....	137
Olmaxon .....	141



*Bolalar adabiyoti*

# **SHARQONA TARBIYA**

**2-kitob**

*Ertaklar, rivoyatlar, hikoyatlar, hikoyalar, maqollar, hikmatlar*

**Muharrir:**

Ilhom XALILOV

**Musahhih:**

Ixtiyor SAID

**Badiiy va texnik muharrir:**

Xurshidbek IBROHIMOV

«Navro'z» nashriyoti litsenziyasi:

AI № 170. 23-dekabr 2009-y.

100000, Toshkent shahri, A.Temur ko'chasi, 19-uy.

Terishga berildi: 09.01.2018.

Bosishga ruxsat etildi: 20.02.2018.

Formati: 60x84 1/16.

Schoolbook garniturasida  
ofset usulida bosildi.

Nashr bosma tabog'i: 2,42.

Shartli bosma tabog'i: 6,86.

Adadi: 8000 nusxa.

Buyurtma № 02

«Elizabet print» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent shahri, Mustaqillik shoh ko'chasi, 38-uy.

**e-mail:** elprint\_info@mail.ru





# SHARQONA TARBIYA

## 2-kitob

ʻTiboringizga havola etilayotgan ushbu toʻplanning alohida xususiyati shuki, unda inson feʼlida mujassam boʻlgan baʼzi bir fazilat yoki illatlarga toʻxtalinib, uni ertaklar, rivoyatlar, hikoyatlar, hikoyalar, xalq maqollari misolida izohlanadi, ayni mavzudagi ulamolarning oʻgiltari, donolarning hikmatlari keltiriladi. Mazkur toʻplam oila davrasida mutolaa qilish uchun moʻljallangan.

ISBN 978-9943-38-1-964



9 789943 381964